

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.04.2021.Fil.20.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**JAQSILIKOVA ALBINA SAGINBAEVNA**

**QORAQALPOQ SATIRIK NASRI  
(genezisi, rivojlanish tendensiyalari, poetikasi)**

**10.00.12 – Qoraqalpoq adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Nukus – 2024**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on  
philological sciences**

**Jaqsilikova Albina Sag‘mbaevna**

Qoraqalpoq satirik nasri (genezisi, rivojlanish tendensiyalari, poetikasi)..... 3

**Жаксылыкова Альбина Сагынбаевна**

Каракалпакская сатирическая проза (генезис, тенденции развития,  
поэтика)..... 27

**Jaksilikova Albina Sagimbaevna**

Karakalpak satirical prose (genesis, development trends, poetics)..... 53

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works..... 57

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.04.2021.Fil.20.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**JAQSILIKOVA ALBINA SAGINBAEVNA**

**QORAQALPOQ SATIRIK NASRI  
(genezisi, rivojlanish tendensiyalari, poetikasi)**

**10.00.12 – Qoraqalpoq adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Nukus – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.PhD/Fil700 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Nukus davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy Kengashning veb sahifasida ([www.tai.uz](http://www.tai.uz)) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Bekbergenova Mariya Dosbergenovna**  
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Nurjanov Perdebay Erjanovich**  
filologiya fanlari doktori, dotsent

**Bayniyazova Tazagul Kirkbaevna**  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Yetakchi tashkilot:**

**Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi DS.03/30.04.2021.Fil.20.01 raqamli Ilmiy Kengashning 2024 yil «12» 09 soat 14<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-59-25); faks: (99861) 223-59-25, e-mail: [karsu\\_info@edy.uz](mailto:karsu_info@edy.uz)).


Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (196 raqam bilan ruyxatga olingan.) Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1 uy. Tel:(99861)223-59-25, faks:(99861)223-59-25; e-mail: [karsu\\_info@edu.uz](mailto:karsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «21» 08 kuni tarqatildi.  
(2024 yil «21» 08 dagi 6 raqamli reestr bayonnomasi).

  
**Q.K.Orazimbetov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
filologiya fanlari doktori, professor

  
**D.B.Seytkasimov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy  
kotibi, pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

  
**Z.U.Bekbergenova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi  
ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori  
(DSc), professor



## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusi dolzarbligi va zarurati.** Jahon adabiyotshunosligida axborot almashish jarayoni integratsiyasi global munosabatlar jadal tus olishiga zamin hozirladi. Binobarin, jamiyat va madaniyat hayotida yuzaga kelgan kommunikatsiya jarayoni hayotiy ehtiyojni yanada oshiradi. Bugungi kunda badiiy asarlarda yangicha talqin, estetik baholash mezonlari o'zgarishi, tadqiqot yo'nalishi, ayniqsa, nasriy satiraning taraqqiyot tamoyillarini belgilash, uslubiy-shakliy izlanishlar rang-barangligini kuchaytadi. Shunga ko'ra, matnda xarakter hamda konflikt yaratish mahoratini murakkab bog'lanishda o'rganish muayyan salmoq kasb etadi. Azaliy an'analar va ilg'or tajriba mahsuli sifatida satirik nasr vujudga kelishi, shakllanishi va taraqqiy etishi ichki hamda tashqi omillarga bog'lanadi. Shu ma'noda, odamzod shuurini band etgan muammolar ko'lamini umumlashtirish qay darajada muhim bo'lsa, satirik nasr g'oyaviy-estetik mohiyatini qahramon va muhit ziddiyati vositachiligida yoritish ham shunchalik dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Dunyo adabiyotshunosligida satirik nasrni badiiylik qonuniyatlari asnosida tekshirish, aynan, hajviyot badiiy tizimda tutgan o'rni va vazifasini belgilash, poetik talqinda milliy-ma'naviy mezon hamda umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligiga jiddiy e'tibor qaratiladi. Badiiy asar, shu jumladan, satirik nasr tabiatini ham asosiy tushuncha, ham estetik kategoriya sifatida tushunish tamoyilining teranlashuvi jamiyatda mavjud negativ vaziyat, ma'naviy-axloqiy masalalar talqiniga ehtiyojni oshiradi. Satira aslida muammoning tub ildizlariga yetib boradi, ijod ruhiyat va badiiy tahlil munosabatini belgilaydigan omilga aylanadi. Shu ma'noda, estetik idealni mustahkamlashga xizmat qiladigan satirik tasvir yo'nalishi qoraqalpoq adabiyotining muhim bosqichi sifatida baholash masalani yana-da oydinlashtiradi.

Mustaqillik davri adabiyotshunosligida satirik nasr rivojlanish qonuniyatlari muayyan darajada yoritilgan. Shunga qaramasdan, qoraqalpoq adabiyotshunosligida satirik nasr vujudga kelishi, taraqqiyot tendensiyalari va badiiy xususiyatlari monografik tarzda maxsus tadqiq qilinmagan. Aslida «adabiyot va san'atga, madaniyatga e'tibor – bu, avvalambor, xalqimizga e'tibor, kelajagimizga e'tibor»<sup>1</sup> darajasiga ko'tarilar ekan, jamiyat umumkayfiyatini aks ettiradigan qoraqalpoq satirik nasri strukturasi, badiiy-estetik mohiyati hamda tipologiyasini nazariy umumlashtirish dissertatsiya ishimizning dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi, 2019-yil 6-sentabrdagi PF-5812-son «Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son «O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmonlari, shuningdek, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son «Fanlar akademiyasi faoliyati,

<sup>1</sup>Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санъат маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустақкам пойдеворидир // Халқ сўзи. – Тошкент, 2017. 4 август. - № 153 (6847).

ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2018-yil 12-maydagi PQ-3721-son «Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o'rganish va targ'ib qilish maqsadida yoshlar o'rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to'g'risida»gi, 2019-yil 11-iyuldagi PQ-4391 son «Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son «Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarorlari va sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Jahon adabiyotshunosligida Ya.Elsberg, D.Nikolaev, A.Makaryan, L.Ershov, M.M.Baxtin, V.G.Belinskiy, V.S.Durov, A.Petrenko, A.Charushin, L.Garapshina, T.Fedyaeva, E.Allaxyarova, L.Ibragimxalilova, S. Tilabov, N.Chuyakova, R.Gudmanan<sup>2</sup> kabi olimlar falsafa, adabiyot nazariyasi hamda estetikaga doir asarlarida aks etgan qarashlar, badiiy asar talqini, nasrda hajviy ruhiyat realizmi, satira va uning badiiy xususiyatlari to'g'risidagi nazariy umumlashmalar salmoqli o'rin tutadi.

Turkiy xalqlar adabiyotshunosligida satira taraqqiyoti va uning bosqichlari, janriy tafovuti, uslubiy-shakliy izlanishlarda hajviy obraz yaratish, konflikt va xarakter munosabati, badiiy asar tili bo'yicha ilmiy tajriba mavjud. Jumladan, H.Abdusamatov, N.Rahimov, H.Razzoqov, A.Abdug'afurov, M.Qo'shjonov, S.Toshkanov, O.Saidov, M.Tlewjanov, T.Qojakeev, A.Musaev, A.Qayumova, S.Maxsimxonov, A.Qabilov, M.Sheraliev, X.Xaytov, L.Jalilova, F.Tursunova<sup>3</sup>,

<sup>2</sup> Эльсберг Я. Вопросы теории сатиры. – М.: Советский писатель, 1957. – 427 с.; Николаев Д. Смех – оружие сатиры. – М.: Искусство, 1962. – 223 с.; O'sha muallif. Сатира Щедрина и реалистический гротеск. – М.: Художественная литература, 1977. – 370 с.; Макарян А. О сатире. – М.: Советский писатель, 1967. – 275 с.; Ершов Л. Из истории советской сатиры. – М., 1973. – 155 с.; O'sha muallif. Сатирические жанры русской советской литературы (от эпиграммы до романа). – Л.: Наука, 1977. – 270 с.; Бактин М.М. Вопросы литературы и эстетики. – М.: Художественная литература, 1975. – 502 с.; Белинский В.Г. Собрание сочинений. – М., 1978. – 271 с.; Дуров В.С. Жанр сатиры в римской литературе. – Л.: Ленинградского университета, 1987. – 161 с.; Петренко А. Сатирическая проза М.А. Булгакова 1920-х годов: поэтика комического: Дис. ... канд. филол. наук. – Пятигорск, 2000. – 201 с.; Чарушин А. Сатиры Джона Драйдена: Автореф. дис.... канд. филол. наук. – Нижний Новгород, 2003. – 20 с.; Гарашина Л. Сатирическое творчество Фатыха Амирхана: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Казань, 2004. – 28 с.; Федяева Т. Диалог и сатира: Автореф. дис.... канд. филол. наук. – М., 2004. – 24 с.; Аллахарова Э. Сатира и юмор в творчестве Жамидина: Автореф. дис.... канд. филол. наук. – Махачкала, 2005. – 24 с.; Ибрагимхалилова Л. Сатирические жанры лезгинской литературы: Автореф. дис.... канд. филол. наук. – Махачкала, 2005. – 28 с.; Тилабов С. Сатира Нозила Худжанди (Образ. Стиль. Мастерство): Автореф. дис.... канд. филол. наук. – Худжанд: 2009. – 27 с.; Чуякова Н. Сатира и юмор в устном народном творчестве адыгов: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Майкоп, 2010. – 47 с.; Гудманан Р. Сатира в «Маснави Маънави» Джалаладдина Балхи: Автореф. дис.... канд. филол. наук. – Душанбе, 2011. – 26 с.

<sup>3</sup> Абдусаматов Х. Ўзбек совет сатирицининг баъзи масалалари. – Тошкент: ФАН, 1960; Рахимов Н. Ўзбек совет сатирици тарихидан. – Тошкент: ФАН, 1962. – 170 б.; Раззоқов Х. Ўзбек халқ ижодида сатира ва юмор. – Тошкент: Фан, 1966. – 86 б.; Абдуғафуров А. Муқимий сатирици. – Тошкент: ФАН, 1978; O'sha muallif. Навоий ижодида сатира. – Тошкент: ФАН, 1972. – 260 б.; Қўшжонов М. Абдулла Қаҳҳор ижодида сатира ва юмор. – Тошкент: ФАН, 1973. – 152 б.; Тошканов С. Современный узбекский сатирический рассказ и проблема характера (1960-1970): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1975; O'sha muallif. Ўзбек совет адабиётида сатирик характер проблемаси. – Тошкент:

qoraqalpoq adabiyotshunosligida J.Narimbetov, A.Qojiqbaev, Q.Kamalov, M.Nurmuxamedov, J.Esenov, Yu.Paxratdinov, S.Axmetov, Q.Jarimbetov, P.Nurjanov, Z.Bekbergenova, J.Kaniyazova, Q.Orazimbetov, K.Allambergenov, J.Sagidullaeva, A.Seytbekov, Z.Ktaybekova<sup>4</sup> nazariy talqinida nasr, hajviy xarakter yaratish mahorati yuzasidan umumlashmalar chiqariladi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Tadqiqot Nukus davlat pedagogika instituti istiqbol ilmiy tadqiqot dasturi «Qoraqalpoq folklori va qoraqalpoq adabiyoti tarixi», «Zamonaviy filologiya nazariyasi va metodikasi dolzarb muammolari» doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** qoraqalpoq satirik nasrining genezisi, adabiy rivojlanish qonuniyatlari va badiiy xususiyatlarini aniqlash, ijodkorning xarakter va konflikt yaratish mahorati bilan bog'liq o'ziga xoslikni uslubiy-shakliy izlanishlar misolida ochib berish, adabiy yo'nalish sifatida qoraqalpoq adabiyoti tarixida bajaradigan funksiyasi hamda tutgan o'rnini belgilashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

qoraqalpoq adabiyotida satira tutgan o'rni, poetik funksiyasi, istilohning paydo bo'lishi va taraqqiyot bosqichlarini aniqlash, nasrda satirik talqin falsafiy-mantiqiy, ilmiy-nazariy hamda g'oyaviy-estetik mohiyatini ochib berish;

satiraning jahon adabiyotidagi an'analari, badiiy adabiyotga xos umumiy hodisalardan biri ekanligi, badiiy mezonlari va asar strukturasidagi o'rni va ahamiyatini asoslash;

---

ФАН, 1987. – 108 б.; Саидов О. Сатира тили билан. – Тошкент: Ўзбекистон, 1978. – 86 б.; Глеужанов М. Проблемы идейно-художественного своеобразия юмора и сатиры в казахской литературе (проза): Дис. ... д-ра. филол. наук. – Уральск, 1981. – 334 с.; Қожақеев Т. Адам. Қоғам. Сатира. – Алматы: Қазақстан, 1980. – 177 б.; О'ша muallif. Сатиралық жанрлар. – Алматы: Мектеп, 1983. – 214 б.; О'ша muallif. Шығармалары. 2,4, 8-т. – Алматы: Айғаным, 2014. – 287 б.; Мусаев А. Сатирические образы в современной казахской прозе: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Алматы, 1990. – 24 б.; О'ша muallif. Поэтика казахской сатиры. – Алматы: Санъат, 1997; Каюмова А. Своеобразие туркменской сатирической прозы (60-80-е годы): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ашхабад, 1991. – 22 с.; Махсимхонов С. Абдулла Қодирий ижодида ҳажвий характер муаммоси (кичик насрий асарлари мисолида): Филол. фан. ном. ... дис. автореф. – Тошкент, 1997. – 22 б.; Қабылов Э. Сатира поэтикасы. Оқу куралы. – Ақтаў, 2012. – 231 б.; О'ша muallif. Эбш Кекілбаев шығармаларындағы күлкі құбылыстары. Монография. – Ақтау, 2019. – 166 б.; Шералиева М. Ҳозирги ўзбек насрида киноя: Филол. фан. ном. ... дис. – Тошкент, 2017. – 46 б.; Хаитов Х. Ўзбек прозаси тараққийтига халқ майдон кулги санъатининг таъсири: Филол. фан. фалс. д-ри (PhD)... дис. автореф. – Бухоро, 2021; Жалилова Л. XX аср бошидаги Америка сатирик новелласининг поэтикаси: Филол. фан. ном. ... дис. – Бухоро, 2021. – 54 б.; Tursunova F. Hajviy asarda monologik nutqning o'ziga xos xususiyatlari (Abdulla Qodiriy asarlari misolida): Filol. fan. fals. d-ri (PhD). ... dis. avtoref. – Farg'ona, 2023. – 24 б.; – 190 с.

<sup>4</sup> Нарымбетов Ж. Каракалпакский роман. – Т.: Фан, 1974; Қожықбаев Э. Каракалпак романы (Конфликт хэм қахарман). – Нөкис: Каракалпакстан, 1977; Камалов Қ. Каракалпак повести (жанрдың эволюциясы). – Нөкис: Каракалпакстан, 1978; Нурмухамедов М. Шығармаларының еки томлығы. 2-т. – Нөкис: Каракалпакстан, 1985. – 440 б.; Есенов Ж. Шеберликтің сырлары. – Нөкис: Каракалпакстан, 1986; Пахратдинов Ю. Ҳазирги заман каракалпак прозасындағы сатира. – Нөкис: Каракалпакстан, 1988. – 136 б.; Ахметов С. Каракалпак әдебий сыны. – Нөкис: Билим, 1993. – 229 б.; Жәримбетов Қ. XIX әсир каракалпак лирикасының жанрлық қасийетлери хэм раўажланыў тенденциялары. – Нөкис: Билим, 2004. – 188 б.; Нуржанов П. Ҳазирги каракалпак романы поэтикасы (Композициялық хэм жанрлық-стильлик өзгешеликлери). – Нөкис: Билим, 2008. – 116 б.; О'ша muallif. Ҳазирги каракалпак романы (сюжет хэм конфликт, поэтикасы). – Нөкис: Билим, 2009. – 128 б.; Бекбергенова З. Каракалпак романларында көркем сөз поэтикасы(1980-2010-жыллар). – Нөкис: Илим, 2016. – 205 б.; Каниязова Ж. Ш. Сейтов романларида характер яратиш махорати («Халқобод») роман-тетралогияси мисолида: Филол. фан. фалс. д-ри (PhD) ... дис. автореф. – Нукус: 2017. – 48 б.; Оразымбетов Қ. Таңдамалы шығармалар топламы. Еки томлық. 2-т. – Нөкис: Билим, 2018. – 384 б.; Алламбергенов К. Халық жазыўшысының көркемлик хэм илимий дүньясы // Эмиўдәрья. – Нөкис, 2019. - №6; Сағыйдуллаева Ж. Каракалпак повестьлеринде стильлик изленислер (1980-жыллар). – Нөкис: Qaraqalpaqstan, 2020. – Б. 120; Сейтбеков А. К. Рахманов дәретийшилигинде эпикалық хэм драмалық шығармалардың синтези: Филол. илим. б-ша филос. д-ры (PhD) ... дис. – Нөкис: 2020. – 150 б.; Ктайбекова З. Ғәрезсизлик дәуири каракалпак гүрриндлерининг поэтикасы: Филол. илим. б-ша филос. д-ры (PhD) ... дис. – Нукус, 2021. – 163 б.

qoraqalpoq adabiyotida satirik nasr tasvirlash usullari, badiiy asar tili ifoda imkoniyatlarini yozuvchi poetik mahorati bilan bog'liklikda ko'rsatish;

hajviy tafakkur taraqqiyotida xarakter hamda konflikt yaratishdagi uslubiy tendensiyalar rang-barangligi, komizm va dramatism, uning sintezi masalasini tavsiflash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida qoraqalpoq yozuvchilar – J.Aymurzaev, I.Qurbanbaev, Sh.Seytov, K.Raxmanov, A.Abdiev, M.Nizanov, O.Abdiraxmanov, K.Smamutov, K.Ernazarov, H.Otemuratova kabi ijodkorlar satirik asarlari tanlab olindi.

**Tadqiqot predmetini** qoraqalpoq satirik nasrining barpo bo'lishi, shakllanish tarixi, g'oyaviy-tematik diapazoni, adabiy xarakter va konflikt yaratish, shakliy-uslubiy o'ziga xoslik, badiiy til xususiyatlari va tasvir vositalaridan foydalanish mahorati masalalarini tadqiq etishdan iborat.

**Tadqiqot usullari.** Dissertatsiya mavzusini yoritishda tarixiy-tipologik, badiiy-estetik talqin va struktural analiz metodlardan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat: jahon va turkiy xalqlar adabiyotida o'ziga xos o'rin tutadigan satirik nasrning payda bo'lishi, shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini ilmiy-nazariy tadqiq etish barobarida uning yo'nalishlari, g'oyaviy-mavzuviy va struktural-semantik mohiyati bo'yicha yangicha badiiy – adabiy jarayon ekanligi ochib berilgan;

qoraqalpoq adabiyotshunosligida shakllangan ilmiy-nazariy qarashlar asnosida satirik nasr taraqqiyot tendensiyalari, hajviy tafakkur tipida g'oyaviy-tematik yo'nalishlar, satirik xarakter yaratishdagi yozuvchilarning individual xususiyatlari komizm va dramatism o'zaro sintezi, dramatik voqealarning komik vaziyatlar zamiriga singdirilishidagi ijodkorlar mahorati muhim poetik omil ekanligi asoslangan;

qoraqalpoq nasridagi roman, qissa va hikoyalarda satirik xarakter yaratish bilan bog'liq davr va muhit ziddiyatlari munosabati umumlashtirilgan holda komedik konflikt, tashqi (sujetli) va ichki konflikt kabi ko'rinishlari xususan, ijobiy va salbiy, shuningdek salbiy qaharmonlarning o'zaro qarama-qarshiliklari, ularning o'z-o'zini yoki bir-birini fosh etishi, personajlar pozitsiyasi va muallif idealining to'qnashuvlari asosida vujudga kelishi dalillangan;

hajviy tafakkurda ironiya, sarkazm, grotesk, giperbola kabi tasviriy vositalar va vulgarizm, varvarizm, jargon so'zlar, argotizmlar kabi leksik resurslar hamda maqol-matallarning kontekstdagi badiiy vazifasi va ulardan foydalanishda ijodkor mahorati ilmiy-nazariy isbotini topganligi dalillangan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

qoraqalpoq satirik nasri badiiy jihatdan taraqqiy topishida jahon va turkiy xalqlar adabiyoti ilg'or an'analari kuchli ta'sir o'tkazganligi amaliy jihatdan ochib berilgan;

qoraqalpoq satirik nasrning rivojlanishida g'oyaviy-tematik yo'nalishlar tasnifi, satirik obraz va xarakter yaratishdagi ijodkor mahorati, konfliktning hayotiy ziddiyatlarni aniqlashdagi adabiy jarayon ekanligi, komizm va dramatismdagi sintez belgilari hajviy tafakkur tipi tabiatidan kelib chiqishi isbotlangan;

milliy prozada satira, uning har xil ko‘rinishlari vujudga kelishida dunyo xalqlari folklori va yozma adabiyoti namunalari genetik manba hamda ijodiy tajriba vazifasini o‘tashi qiyosiy-tipologik tahlillar yordamida asoslangan;

qoraqalpoq adabiyotshunosligida satirik nasr maqomini belgilash orqali uning taraqqiyot tamoyillari, poetik mahorat va hajviy xarakter yaratishdagi ijodiy individuallik belgilari muayyan tizim sifatida murakkab kompleks bog‘lanishi aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Dissertatsiyada qo‘yilgan muammo tadqiqiga mustaqillik mafkurasi talablari asosida ilmiy jihatdan xolislik mezon bilan yondashilgan, satirik nasr namunalari bo‘yicha tegishli metodlar vositasida xulosalar chiqarilgan. Shuningdek, tadqiqot maqsad va vazifalari taqozo etgan yangicha yondashuvlardan foydalanish uning asoslanganlik darajasini ta‘minlaydi. Xilma-xil janrlarda hajviy realizm tahliliga oid qarashlar haqqoniy va asosli ekanligini taqozo etadi. Tadqiqot natijalari va xulosalari amaliyotga joriy etilgani va ular mazmunida hozirgi adabiyotshunoslikda yangilanayotgan ilmiy tafakkurga suyanilgani hamda uni qisman boyitgani ham ishonchlilik darajasini oshiradi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalari qoraqalpoq nasri, shu jumladan, satirik asarlar tahliliga bag‘ishlangan tadqiqotlar yaratish hamda muammoni shu aspektda o‘rganish uchun ilmiy-nazariy asos vazifasini o‘taydi. Turli mavzu va epik janrlarda yaratilgan hajviy asarlar talqini asosida chiqarilgan umumlashma xulosalar tadqiqot originalligini oshiradi hamda mazkur yo‘nalishda kuzatishlar doirasini kengaytiradi. Tadqiqot natijalaridan qoraqalpoq satirasida yangi tamoyillar, uslubiy izlanishlar xususida monografik tekshiruvlar olib borish, qoraqalpoq adabiyoti ilmiy bibliografiyasini tuzishda foydalaniladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy ta‘lim tizimida «Adabiyotshunoslik asoslari», «Qoraqalpoq adabiyoti tarixi», «Adabiyot nazariyasi», «Hozirgi adabiy jarayon» hamda «Mustaqillik davri qoraqalpoq adabiyoti» fanlaridan darslik, o‘quv qo‘llanmalar yaratish hamda ixtisoslik fanlaridan maxsus kurs va tanlov mashg‘ulotlari o‘tkazishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi:** Qoraqalpoq satirik nasri genezisi, taraqqiyot tendensiyalari va poetikasi, hajviy qahramon yaratish tajribasida poetik mahorat bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar, olingan ilmiy natijalar asosida:

qoraqalpoq adiblari satirik talqini, ayniqsa, nasrda hajviy qahramon yaratish mahorati, konflikt shakllanishi hamda badiiy izlanishlar muammosiga bag‘ishlangan ilmiy-nazariy xulosalardan O‘zR FA QQ bo‘limi, Qoraqalpoq gumanitar ilmiy-tadqiqot institutida 2012-2016- yillarda bajarilgan FA-F1, GOO2 «Qoraqalpoq folklori va adabiyoti janrlarining nazariy masalalarini o‘rganish», 2017-2020-yillarda bajarilgan FA-F-1-005 - «Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish» mavzusidagi fundamental tadqiqot loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti 2023-yil 12-iyuldagi 285/1-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada satiraning qoraqalpoq prozasi rivojida asosiy bosqichlari, yuzaga kelgan yangicha uslubiy

izlanishlar belgilari, poetik o'ziga xosligi va g'oyaviy-tematik yo'nalishlarini belgilashda manba vazifasini o'tagan;

qoraqalpoq adabiyotida satirik proza taraqqiyot bosqichlari va g'oyaviy-tematik yo'nalishlari, janriy xususiyatlari, hajviy xarakter va konflikt yaratish masalalari to'g'risidagi ilmiy-nazariy qarashlardan Qoraqalpog'iston Respublikasi tarixi va Madaniyati davlat muzeyida mustaqillik davrida erishilgan yutuqlarni targ'ib etadigan ko'rgazmalarga tayyorlangan ekskursiya matnlari mazmunini boyitishda foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniyat vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi tarixi va Madaniyati davlat muzeyining 2023-yil 10-iyuldagi 238-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, muzey ekspozitsiyasida qoraqalpoq yozuvchilarining o'rni, satirik proza asosiy tendensiyalari, muallifning hajviy qahramon yaratishdagi poetik mahorati, satirik xarakter va konflikt munosabatini ochib berishga muayyan zamin yaratilgan;

qoraqalpoq satirik nasri g'oyaviy-tematik yo'nalishlari, badiiy-estetik vazifasi va satirik ijodkorlarning shakliy-uslubiy izlanishlarida o'ziga xos iqtidori haqidagi ilmiy hamda amaliy xulosalardan Qoraqalpog'iston teleradikompaniyasining «Adabiyot bo'stoni», «Adabiyot va zamon», «Meros», «Adabiy portret» madaniy-ma'rifiy eshittirishlarida foydalanilgan (Qoraqalpog'iston teleradiokompaniyasining 2023-yil 11-iyuldagi 05-22/340-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, qoraqalpoq adabiyotida satirik nasrning paydo bo'lishi, shakllanish va rivojlanish bosqichlari, g'oyaviy-tematik yo'nalishlari, xarakter va konflikt yaratishda badiiy izlanishlar, shuningdek, satirik asarlardagi komizm va dramatism, ularning sintezi masalalari keng jamoatchilikka targ'ib qilingan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 14 ta ilmiy anjuman, jumladan, 5 ta respublika va 9 ta xalqaro konferensiyadagi ma'ruzalarda bayon qilinib, keng ilmiy jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 22 ta ilmiy ish chop etilgan. Shundan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta ilmiy maqola, 5 ta respublika miqyosida, nufuzli xorijiy jurnallarda 3 ta ilmiy maqola e'lon qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Doktorlik dissertatsiyasi kirish, uchta asosiy bob, sakkiz fasl, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 155 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi, zarurati va o'rganilishi darajasi asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti bayon qilingan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, tadqiqotning tuzilishi va hajmi ko'rsatilgan.

Dissertatsiyaning «**Satirik nasrning paydo bo'lishi, shakllanish va taraqqiyot bosqichlari**» deb nomlangan birinchi bob ikki fasldan tashkil topgan.

Bobning birinchi fasli «**Satirik nasrning paydo bo'lishi va o'rganilish tarixi**» deya nomlanib, satirik nasrning vujudga kelish tarixi, shakllanishi, rivojlanish jarayoni hamda o'rganilishi haqida jahon adabiyotshunosligida namoyon bo'lgan dastlabki fikr-mulohazalar, metodologik asosga ega bo'lgan ilmiy yondashuvlar tahlil qilingan holda ilmiy nazariy qarashlar bayon etildi.

Rus satirashunos olimi, D.Nikolaevning e'tirof etishicha: «bir narsa ayonki, «satira» atamasi u tug'ilishidan oldin paydo bo'lgan»<sup>5</sup>. Shu ma'noda, jahon adabiyotshunosligida mutaxassis olimlar tomonidan «satira» termini kelib chiqish tarixi, etimologiyasi haqida har xil ilmiy-nazariy qarashlar mavjud. Xususan, grek olimlari ta'kidlashicha, «uzum yetishtiruvchilar va uzum sharobini tayyorlovchilar xudosi Dionisning qo'shiq aytib, o'ynab, hammani kuldirib, kayfiyatni ko'taruvchilar hamrohlarini «Zaigoz» dep atagan». «Satira» atamasiga ayni shu so'z asos bo'lgan. Boshqa tadqiqotchilarga ko'ra, bu termin tarixi lotin tilidagi «satira» – «smes» – aralash, har xil narsalar yig'indisi, «всякая всячина – ul-bul» so'zlaridan boshlanadi. Keyinchalik qadimgi Rim adabiyotshunoslari, tahliliy tanqid, fosh etish mohiyatiga ega asarlarni «satir» deb ataganlar<sup>6</sup>.

Satiraning qadimiy namunalari Aristofan (e.a. V asr oxiri va IV asr boshlari) ijodida yorqin aks etadi. U qirqqa yaqin komediya yozib (ulardan bizgacha o'n bir komediyasi yetib kelgan), o'z davridagi adolatsizliklarni shavqatsiz ravishda fosh qilgan. Keyingi davrlarda har bir xalq o'z satiriklariga ega bo'lib, yozma adabiyotida satira, yumor yuqori bosqichlarga ko'tarila boshlagan holda har bir xalq muayyan davrda o'z klassik satiralarini yaratgan.

Qadimgi Rim mohir satirigi – Gay Lusili (e.a. 180-102-yillar), satirani adabiyotning bir turi sifatida shakllantirib, 30 dan ortiq asarlar yaratgan holda uning taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan. Satira Gorasiy (eramizgacha bo'lgan 658-yil) va Yuvenal (eramizgacha 501-427-yillar) ijodida keng taraqqiy etgan. Yuvenal Rimning eng mohir satirigi sifatida tan olingan. Uning kuchli nafrat va fosh qilishga qaratilgan o'tkir sarkazmga yo'g'rilgan asarlari xalq orasida juda qadrlangan.

Qadimgi greklar ijodkori Lukian (bizning eramizgacha bo'lgan 120-180-yillar) satiraning nasriy shaklini rivojlantirdi. Lukian ijodida «Xudolar suhbati», «Dengiz suhbatlari», «O'liklar olamidagi suhbat» kabi falsafiy satirik dialoglar o'rin olgan. Muallif mazkur asarlarida xudolarni achchiq, zaharxanda kulgu ostiga oladi.

Bugungi kunda «satira» atamasi har xil ma'noda istifoda qilinib kelmoqda. Ayrim olimlar uni adabiyotning bir jinsi (род) sifatida izohlaydi. Rus olimi Y.Elsberg: «Satira – borliqni adabiyot bilan san'at uyg'unligida aks ettirishni usuli», – deya e'tirof etadi<sup>7</sup>. A.P.Kvyatkovskiy esa «Satira – hayotdagi salbiy illatlarni fosh qilib, uning ustidan kulishni maqsad qilgan holda nasriy (oddiy) so'zlar yoki she'riy ifoda bilan yoziladigan badiiy adabiyot turi» sifatida ta'kidlaydi<sup>8</sup>.

<sup>5</sup> Николаев Д. Смех – оружие сатиры. – Москва: Искусство, 1962. – С. 6.

<sup>6</sup> Қожақеев Т. Шығармалары. 2-т. – Алматы: Айғаным, 2014. – Б. 3.

<sup>7</sup> Эльсберг Я. Вопросы теории сатиры. – М.: Советский писатель, 1957.

<sup>8</sup> Квятковский А.П. Поэтический словарь. – М.: Советская энциклопедия, 1966.

Rus adabiyotshunosligida Y.Elsberg, D.Nikolaev, A.Makaryan, L.Ershov, L.Timofeev, Y.Boryev, V.Frolov<sup>9</sup> kabi olimlar izlanishlarida satira tushunchasi, uning nazariy masalalari, taraqqiyot tadrijiga oid qarashlar o'z aksini topadi. Xususan, satira va uning shakllari hamda o'rganilishiga doir yaratilgan bir qator ilmiy ishlarda satira tushunchasi hayotni badiiy talqin qilish va tasvirlashning o'ziga xos usuli sifatida izohlanib, badiiy adabiyotga bevosta aloqadorligi e'tirof etiladi. Shuningdek, satiraning vujudga kelish asoslarini belgilash, teran tahlil qilish orqali bu boradagi chalkashliklarga munosabat bildiriladi. Xususan, L.Timofeev satirani adabiyotning barcha turlarida qo'llash mumkinligi bilan bir qatorda uning o'zi bir tur ekanligi haqidagi fikrlarni bildiradi<sup>10</sup>. Y.Elsberg esa «Satira badiiy unsur sifatida satirik obraz va motivlar hamda alomatlari mavjud bo'lgan asarlarda namoyon bo'ladi»<sup>11</sup>, – deya ta'kidlaydi.

Turkiy xalqlar adabiyotida satira maxsus tadqiq qilingan. Xususan, qozoq adabiyotshunosligida T.Qojakeev satira tabiati haqida: «Satirada achchiq kulgu, masqaralash, inkor etish, hukm chiqarish, inson dardini anglash, azoblanish, inson qalbiga chuqur nazar solish aks etadi. Shuningdek, ularda quvonch va iztirob, adolat va zulm, lirik tuyg'u va ilmiy tahlil o'zaro uyg'unlashadi. Shu ma'noda, satira o'zaro qarama-qarshiliklar zamirida paydo bo'ladi», – deya izohlaydi<sup>12</sup>. Akademik R.Nurg'alining qozoq dramaturgiyasi janriy o'ziga xosligiga bag'ishlangan tadqiqotida satiraga nisbatan bildirgan munosabat va xulosalari T.Qojakeev fikrlari bilan mutanosib kelmasligini kuzatamiz. Olim ta'kidlaydiki: «Satirani janr yoki uslubga ajratish kerakmi? – degan ilmiy muammoga hanuz adabiyotshunoslikda aniq javob aytilgan emas. Bizning fikrimizcha, satira alohida janr emas. Chunki, har xil janrdagi barcha asarlar (roman, qissa, hikoya, drama, komediya) satirik xarakterga ega bo'lishi mumkin. Satira – adabiyot va san'atning barcha jabhalarida qo'llaniladigan usul yoki muayyan hodisalarni ifodalaydigan pafos»<sup>13</sup>. A.Musaev satiraning janriy xususiyatlarini tadqiq qilish bilan bir qatorda satirik obrazlar poetikasiga alohida ahamiyat qaratadi<sup>14</sup>. Tojik adabiyotshunosi S.Tilabov izlanishlarida satiraning taraqqiyot bosqichlari, satirik obrazlarning badiiy funksiyasi, satirada ijodkor uslubi va mahorati masalalari monografik yo'sinda tadqiq etilgan<sup>15</sup>.

<sup>9</sup> Эльсберг Я. Вопросы теории сатиры. – М.: Советский писатель, 1957. – С. 427; Николаев Д. Смех - оружие сатиры. – Москва: Искусство, 1962. – С. 223; О'ша muallif. Сатира Щедрина и реалистический гротеск. – М.: Художественная литература, 1977. – С. 370; Макарян А. О сатире. – М.: Советский писатель, 1967. – С. 275; Ершов Л. Из истории советской сатиры. – Москва: 1973. – С. 155; О'ша muallif. Сатирические жанры русской советской литературы (от эпиграммы до романа). – Ленинград: Наука, 1977. – С. 270.

<sup>10</sup> Тимофеев Л.И. Основы теории литературы. – М.: Просвещение, 1971. – 359 с.

<sup>11</sup> Эльсберг Я. Вопросы теории сатиры. – М.: Советский писатель, 1957. – С.87.

<sup>12</sup> Қожақеев Т. Сатира негіздері. Оқулық. – Алматы: Санат, 1996. – Б. 464.

<sup>13</sup> Нұрғали Р. Арқау: Екі томдық шығармалар. – Алматы: Жазушы, 1991. – 576 б.

<sup>14</sup> Мусаев А. Сатирические образы в современной казахской прозе: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Алма-ата, 1990. – 24 с.; О'ша muallif. Сатира мен юморды мектепте оқыту мәселелері. Оқу-әдістемелік құрал. (Проф. Тілеужанов пен бірлестікте жазылған). – Орал, 1986; О'ша muallif. Қазіргі қазақ сатирасы. Монография. – Алматы: Ана тілі, 1993; О'ша muallif. Поэтика казахской сатиры. Учебное пособие. – Алматы: Санъат, 1997; О'ша muallif. Қазақ сатирасының поэтикасы. Оқу бағдарламасы. – Орал, БҚМУ баспасы, 2002; О'ша muallif. Сатира табиғаты. Оқу-әдістемелік құрал. – Ақтөбе: АҚМУ– дін редакциялық баспа бөлімі, 2003.

<sup>15</sup> Тилабов С.Т. Сатира Нозила Худжанди (Образ. Стиль. Мастерство): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Худжанд, 2009.

O‘zbek adabiyotshunosligida ham satira tarixi, genezisi, nazariy asoslari kabi muammolar A.Abduq‘afurov, H.Abdusamatov, S.Toshkanov, N.Raximov, O.Saidov<sup>16</sup> kabi olimlar ilmiy tadqiqotlarida o‘rganilgan holda obraz va xarakter, badiiy uslub hamda mahorat, ijodkor individualligi kabi masalalar teran tahlil qilingan. Tadqiqotlar natijasida, jamiyat va uning taraqqiyotiga putur yetkazuvchi omillarni fosh qiluvchi, turli xil xatarli va salbiy illatlarni zaharxanda kulguga oluvchi nasriy bayonda ifoda qilingan asarlar nasriy satira sifatida e‘tirof etiladi.

Birinchi bobning «**Qoraqalpoq satirik nasrining rivojlanish yo‘nalishlari**» deb nomlangan ikkinchi faslida qoraqalpoq adabiyotshunosligida satirik nasrning shakllanishi va taraqqiyot tamoyillari ilmiy nazariy tahlil qilingan holda muayyan xulosalarga kelindi. Ta’kidlash kerakki, satiraning asosi folklor bilan teran tutashadi. Zero, xalq og‘zaki ijodidagi yumor - satira nafaqat Jiyrenshe chechan, Omirbek kabi so‘z ustalari faoliyati bilan bog‘liq, balki u xalq dostonlarida, xayoliy va maishiy ertaklarda, topishmoqlar va boshqa janrlarda ham ko‘plab uchraydi.

Qoraqalpoq adabiyotida satira adabiyotshunos, Yu.Paxratdinov tadqiqotlarida maxsus o‘rganilgan. Olimning «Adam, jamiyat, satira» deb nomlangan tadqiqotida qoraqalpoq folklorida satira va yumorning paydo bo‘lishi va g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, ota-bobolarimizning davralardagi hazil-mutoyibalari, so‘z o‘yinlari, xayoliy, majoziy, hayvonlar haqidagi va boshqa xalq ertaklaridagi kulgu sirlari hamda sabablari har taraflama o‘rganiladi.

O‘tgan asrning 20-yillari qoraqalpoq nasrida satira, aksariyat, hikoya va felyetonlarda uchraydi. Shu davrning 30-yillariga kelib satira ma’lum darajada nazariy va amaliy jihatdan yuqori saviyaga ko‘tarilganligi bilan xarakterlanadi. Ular orasida A.Begimov, J.Aymurzaev, O‘.Ayjanov, N.Davqoraev, D.Nazbergenov, M.Daribaevlar qalamiga mansub satirik asarlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, D.Nazbergenovning «Aralas til mu‘allimi», «Eki o‘jet», «Qos qinir», «Urıdan jalmawız tuwadı», «Qız dese quwjın – quwjın» va boshqa felyeton hamda hikoyalari muayyan voqelikka mos hayotiy haqiqatlar tasviri bilan badiiy qimmatga ega.

XX asrning 50-yillari oxirlarida J.Aymurzaevning «Ámiwdarya boyında» romani satirik nasrning dastlabki namunasi bo‘ldi. Roman syujeti va qahramonlar xarakteri to‘g‘risida A.Qo‘jiqbaev: «Roman satirik xarakterda bo‘lganligi uchun yozuvchi ko‘proq salbiy illatlarni fosh qilishga ahamiyat qaratganini Qamekboy, Karamatdin, Sattor va Elmurod chol obrazlarida kuzatamiz. Yozuvchi Qamekboy xarakterini aniq gavdalantirish asnosida turmushda uchraydigan turli xil noma’qulchiliklarni shu obraz orqali fosh qiladi va barcha voqealarni shu maqsadga yo‘naltiradi»<sup>17</sup>, – degan fikrni bildiradi. Adabiyotshunos, J.Narimbetov romandagi Qamekboy obrazida eskilik sarqitlariga tayangan holda dunyodan o‘tgan ayolning singlisini xotinlikka olish maqsadida amalga oshirgan ishlarini keskin tanqid

<sup>16</sup> Абдуғуфуров А. Навоий ижодида сатира. – Тошкент: ФАН, 1972. С. 260; О‘sha muallif. Муқимий сатираси. – Тошкент: ФАН, 1978. ; Абдусаматов Ҳ. Ўзбек совет сатирасининг баъзи масалалари. – Тошкент: ФАН, 1960; Тошканов С. Современный узбекский сатирический рассказ и проблема характера (1960-1970): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1975; О‘sha muallif. Ўзбек совет адабиётида сатирик характер проблемаси. – Тошкент: ФАН, 1987. – 108 б.; Рахимов Н. Ўзбек совет сатираси тарихидан. – Тошкент: ФАН, 1962.; Саидов О. Сатира тили билан. – Тошкент: Ўзбекистон, 1978. – 86 б.

<sup>17</sup> Қожықбаев Ө. Қарақалпақ романы. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1977. – Б. 143-145.

qiladi<sup>18</sup>. Yozuvchi J.Aymurzaev romanida jamiyatda uchraydigan shunday salbiy illatlarni, ayrim nokas kimsalarning xatti-harakatlarini mazkur g'oya doirasida ochib bergan.

XX asrning 60-yillarida satirik nasr Q.Ayimbetovning «Xalq danaligi» ruknidagi «Qiyli-qiyli qilwalar» hikoyalar turkumida aks eta boshladi. Yozuvchining mazkur to'plamida kichik-kichik hikoyalar, qanotli so'zlar, o'sha davrda yashab o'tgan yoki el orasidagi taniqli zamondoshlar taqdiri haqidagi voqealar o'rin olgan. Bundan tashqari, N.Davqoraev, Q.Ayimbetov, M.Nurmuxamedov, J.Narimbetov, A.Qo'jiqbaev<sup>19</sup> tadqiqotlarida bizning mavzuga daxldor masalalar muayyan asarlar misolida ilmiy tahlil qilinadi. Bu tadqiqotlarda satira yuzasidan alohida maxsus bo'limlar kuzatilmaydi. Faqat Yu.Paxratdinovning «Hazirgi zaman qoraqalpaq prozasidagi satira» tadqiqotida dastlabki qoraqalpoq romanlarida satirik tip va xarakter masalasi keng o'rganiladi<sup>20</sup>.

O'tgan asrning 80-yillari qoraqalpoq adabiyotida M.Nizanov va S.Jumag'ulovlarning satira yaratish mahorati, o'ziga xos uslubini yuqori baholagan olim J.Esenovning ta'kidlashicha «... bu yosh mualliflarning o'ziga xosligi shundaki, M.Nizanovning pozitsiyasi aniq: u yuqoridagidek illatlarga konkret, shavqatsiz munosabatda bo'lib, ularni o'tkir sarkazm bilan zaharxanda kulguga oladi. S.Jumag'ulov salbiy illatlarni yengil mutoyiba, yumoristik usulda yoritmoqchi bo'ladi. Biroq, aksariyat hollarda muallifning g'oyaviy pozitsiyasini anglashga putur yetkazadigan konfliktlar va detallarning notabiiyligi, ishonchsizligi seziladi»<sup>21</sup>.

P.Nurjanov 1970-2000-yillarga xos qoraqalpoq romanlarini o'rganar ekan, yozuvchi Sh.Seytovning «Jaman shiganaqtagi Aqtuba» romani syujetida so'z yuritilgan masalalar haqida shunday fikr bildiradi: «Unda istibdod davrining vujudga kelishi, qatag'on siyosatining avj olishi, mamlakatning bir Markazdan boshqarilishi oqibatida yo'l qo'yilgan xatoliklar, qishloq xo'jaligidagi byurokratizm sababli yuzaga kelgan anglashilmovchiliklar, ishsizlikning avj olishi, jamiyatda ma'naviy-axloqiy buzg'unchiliklarning kuchayishi kabi ijtimoiy-maishiy muammolar o'rta tashlangan holda ularning barchasi umumxalq, insonparvarlik pozitsiyasi nuqtayi nazaridan tasvirlab beriladi»<sup>22</sup>. Adabiyotshunos, Z.Bekbergenova esa yozuvchi K.Raxmanovning «Aqibet» romani syujeti yuzasidan shunday mulohaza bildiradi: «Yozuvchining «Aqibet» (1993) romani syujetida istibdod yillari mamlakat mulkini talon-taroj qilib boylik orttirgan ayrim savdo sohasi xodimlarining taqdiri fojia bilan yakunlanadi»<sup>23</sup> Olimlar tomonidan bildirilgan fikrlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, hayotiy muammolarni, ayniqsa, salbiy illatlar tasvirlangan Sh.Seytovning «Jaman shiganaqtagi Aqtuba», K.Raxmanovning «Aqibet» romanlaridagi voqealarning satirik usulda bayon etilishi

<sup>18</sup> Нарымбетов Ж. Каракалпакский роман. – Ташкент: Фан, 1974.

<sup>19</sup> Даукараев Н. Очерки по истории дореволюционной каракалпакской литературы. – Ташкент: ФАН, 1959; Айымбетов Қ. Халық даналығы. – Нөкис: Каракалпакстан, 1968; Нурмухамедов М.К. Краткий очерк истории каракалпакской советской литературы. – Ташкент: Узгослитиздат, 1959; Нарымбетов Ж. Каракалпакский роман. – Ташкент: ФАН, 1974; Қожықбаев Ә. Қаракалпак романы. – Нөкис: Каракалпакстан, 1977.

<sup>20</sup> Пахратдинов Ю. Ҳазирги заман қарақалпақ прозасындағы сатира. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1988. – 136 б.

<sup>21</sup> Есенов Ж. Шеберликтин сырлары. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1986. – 146 б.

<sup>22</sup> Нуржанов П. Ҳазирги қарақалпақ романы (сюжет ҳам конфликт поэтикасы). – Нөкис: Билим, 2009. – Б.27.

<sup>23</sup> Бекбергенава З. Қарақалпақ романларында көркем сөз поэтикасы (1980-2010-жыллар). – Нөкис: Илим, 2016. – Б. 15.

o'ziga xoslik kasb etadi. Bu xususida J.Sag'iydullaeva: «Ularda turmushning achchiq haqiqatlari yumoristik va satirik usullar yordamida ochib beriladi. Birinchi romanda xalqning manqurtlik psixologiyasi satirik va yumoristik tarzda yoritilsa, ikkinchi asarda insoniy fazilatlaridan judo bo'lgan ayrim savdo xodimlarining qing'ir ishlari satirik tasvirlarda fosh etiladi»<sup>24</sup>, – degan fikrni ilgari suradi.

Demak, satirik nasrning paydo bo'lishi, shakllanishi va rivojlanishi ancha oldingi davrlardagi muayyan bosqichlarni o'z ichiga oladi. Qoraqalpoq nasrida XX asrning 30-yillaridan boshlab hayotiy haqiqatlarni tasvirlashga bag'ishlangan satirik hikoyalar yaratilgan. O'tgan asrning 80-yillar qoraqalpoq adabiyotidagi satirik asarlarda ijodkorlar estetik idealining har xil tarzda tavsirlanishi yuzasidan bir-biridan keskin farq qiladi. Ayniqsa, satirik nasr taraqqiyotida ijodkorlarning badiiy izlanishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Bu borada, M.Nizanov, S.Jumag'ulov, O.Abdiraxmanov kabi mualliflar asarlari qoraqalpoq satirik nasrining oldingi davrlarga nisbatan tamomila yangicha yo'nalish va ruhda taraqqiy etayotganligini, ularda keskin burilishlar mavjud ekanligini ko'rsatadi. Shu ma'noda, qoraqalpoq adabiyotida satirik nasr taraqqiyoti davrlar osha turli xil yo'nalish, shakllar va usullarda o'zgarish va yangilanishlar ichra davom etayotganligi kuzatiladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**Qoraqalpoq satirik nasrining g'oyaviy-mavzuviy yo'nalishlari, konflikt va xarakter**» deb nomlanadi. Ikkinchi bobning birinchi faslida «**Qoraqalpoq satirik nasrining g'oyaviy-mavzuviy yo'nalishlari**» o'rganiladi.

Qoraqalpoq nasri taraqqiyoti bo'yicha o'tgan davrlarning dolzarb masalalariga nisbatan ilmiy munosabat bildirilgan. Dastlabki yaratilgan satirik asarlarda o'sha davr talabiga mos, ya'ni jamiyat taraqqiyoti jarayonida faollik ko'rsatgan yoki beparvo bo'lgan, insonparvarlik tuyg'ularini butunlay yo'qotgan, nafs quliga aylangan, beg'am, fosiq, «og'irning osti, yengilning ustida yashaydigan» odamlar obrazi, shuningdek, nafratomuz ishlarning salbiy oqibatlarini kabi masalalar qalamga olingan. XX asrning 70-80-yillari adabiyot maydonida I.Qurbanbaev, M.Nizanov, O.Abdiraxmanov, S.Jumag'ulov, U.Pirjanovlar satirik hikoya va qissalar yaratgan mohir so'z san'atkorlari sifatida e'tirof etildi.

Mustaqillik davri qoraqalpoq adabiyoti hamda bugungi adabiy jarayonda nasrda samarali ijod qilib kelayotgan adiblar qatorida A.Abdiev, K.Smamutov, H.Otemuratova, K.Ernazarovlarni alohida e'tirof etish lozim. Ayni davrda yaratilgan satirik hikoya va qissalarning asosiy g'oyasi davr haqiqati, talotumlari, insoniy tuyg'ularga yot illatlar, odob-axloq, yuksak insonparvarlik, nafsga mukkasidan ketish, mansabparastlik, buyruqbozlik kabi illatlar tasviri bilan chambarchas bog'liq.

XX asrning 90-yillari oxirlarida qoraqalpoq adabiyotida bir qancha satirik hikoyalar e'lon qilindi. Xususan, M.Nizanovning «Hámelden túsken qanday boladı?», «Sizge bolmaydı», «Írasın aytsañ uradı», «Jaqında qızıq boladı», A.Abdievning «Bekanniń avtomashinaları», H.Otemuratovanning «Juldızım joqarı», K.Ernazarovning «Saqal», «Shaymiy» to'plamlari yaratildi.

<sup>24</sup> Сағыйдуллаева Ж. У.Пиржанов прозасында юмор-сатира // Әмиўдәрья. – Нөкис, 2008. - №4. – Б.119-120.

Qoraqalpoq satirik nasri taraqqiyotini mavzuviy xususiyatlariga ko'ra quyidagicha tasniflash mumkin: 1. Ijtimoiy-siyosiy masalalar, ayrim nopok kimsalarning xatti-harakatlari tanqid qilingan asarlar; 2. Korrupsiya va ta'lim tizimidagi muammolar tasviriga bog'ishlangan asarlar; 3. Xiyonat, adolatsizlik, laganbardorlik illatlari badiiy ifodasi bilan bog'liq asarlar; 4. Xotin-qizlar taqdiri va farzand tarbiyasi muammolari tasvirlangan asarlar.

Yozuvchi I. Qurbanbaevning «Tanislar» qissasida ijtimoiy-siyosiy voqealar qalamga olingan holda ayrim nopok kimsalarning jirkanch xatti-harakatlari tasvirlanadi<sup>25</sup>. Unda istibdod davrida turli sababalar oqibatida maishatparastlikka mukkasidan ketgan yoshlar qismati gavdalantiriladi. Maishatparastlik, giyohvandlik insonni yomon oqibatlarga yetaklashi, bunga giriftor bo'lgan yoshlarning oxir-oqibat xor bo'lishi, ularga el-yurt doimo nafrat bilan qarashi tasvirlanadi. Mohir yozuvchi M. Nizanovning satirik asarlari xususida bir qator adabiyotshunos olimlar tomonidan adabiy-tanqidiy fikrlar e'lon qilindi. K. Qurambaev: «M. Nizanov satirasi nafaqat qoraqalpoq adabiyoti, balkim o'zbek adabiyotida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Uning asarlari (R. Musurmon, N. Fozilovlar tomonidan) o'zbek tiliga o'girilishi adib ijodiy mahorati yuksakligidan dalolat beradi»<sup>26</sup>, – deya baholaydi.

Taniqli satirik O. Abdiraxmanov hikoyalari mavzuviy jihatdan rang-barangligi bilan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Adibning «Bir muhabbat tariyxı», «Qo'nsı-qobalar» to'plamlarida bugungi turmush hodisalari real ifodalangan holda salbiy illatlar satira orqali keskin fosh etiladi. Ularda xiyonat, adolatsizlik, laganbardorlik illatlari tasviri alohida ko'zga tashlanadi. Jamiyatimizda yoshlar, kelajak avlodning ta'lim-tarbiya masalalari, ayniqsa, xotin-qizlar orasidagi boylikka o'chlik, hasadgo'ylik, xiyonat masalalari yozuvchi qalamidan chetda qolmadi. Nasriy satirada farzand tarbiyasidagi xato va kamchilikni aks ettirishda K. Smamutovning «Añqaw balanıń ákesi»<sup>27</sup> hikoyasi farzand taqdirida tarbiyaning tutgan o'rni, ota-onalar tarafidan o'z vaqtida to'g'ri yo'nalish berilmasa, og'ir oqibatlarga olib kelishi satira elementlarida mohirona tasvirlangan. Satirada xotin-qizlarning axloqiy fazilatlarini xarakterlashda H. Otemuratovanning «Hayaldıń kiyesi»<sup>28</sup> hikoyasida alohida ko'zga tashlanadi. Yozuvchi, ayol kishi qismati naqadar og'ir bo'lishini Injigul va Uldaygul obrazlari misolida yorqin ifoda qilgan.

Ikkinchi bobning «**Qoraqalpoq nasrida satirik xarakter va konflikt**» deb nomlangan ikkinchi faslida mavzu taniqli yozuvchilar: J. Aymurazaevning «Ámiwdárya boyında», Sh. Seytovning «Jaman shıganaqtağı Aqtuba», K. Raxmanovning «Aqıbet» romanlari, I. Qurbanbaev qalamiga mansub «Tanislar» qissasi, shuningdek, O. Abdiraxmanov, M. Nizanov, K. Smamutov, H. Otemuratovalarning bir qator hikoyalari misolida tahlilga tortildi.

Badiiy asarda xarakter yaratish, uni real voqelik bilan bog'lash ijodkor qalami qay darajada o'tkirligi bilan o'lchanadi. Adabiy asarda xarakter individual xususiyatlari bilan tasvirlangan, aniq va ravshan ifodalangan obrazdir. Mohirona

<sup>25</sup> Qurbanbaev I. Танислар. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1977. – Б. 147.

<sup>26</sup> Қурамбаев К. Адабий жараён, ижод масъулияти, адабий алоқалар. (Сайланма мақолалар). – Тошкент: Cholpon nomidagi nashiryat-matbaa ijodiy uyi, 2009. – Б. 456.

<sup>27</sup> Смамутов К. Анқаў баланың әкеси // Еркин Қарақалпақстан. – Нөкис, 2018, 6-сентябрь.

<sup>28</sup> Отемуратова Х. Хаялдың кийеси // Еркин Қарақалпақстан. – Нөкис, 2002, 16-февраль.

yaratilgan xarakter kitobxon ko'z o'ngida o'z harakati, umumiy faoliyati, muloqoti bilan aniq hayotiy shaxs sifatida gavdalanadi.

Qoraqalpoq adabiyotida birinchilardan bo'lib satirik roman yaratgan yozuvchi J.Aymurzaevning «Ámiwdárya boyında» asarida xarakter yaratish borasida ijodkor badiiy mahorati katta taassurot qoldiradi. Asar urushdan keyingi yillarda bo'z yerlarni o'zlashtirish masalalariga bag'ishlangan. Romanda yoshlar (Ravshan, Murat, Boris, Aysanem) hamda eskilik sarqitlariga muhtalo bo'lgan ikkinchi qatlam vakillari (Qamekboy, Sattar, Karamatdin, Shinibeka) o'rtasidagi konflikt tasvirlangan. J.Aymurzaevning satirik xarakter yaratishdagi mahorati adib qahramonlarining bir-biriga nisbatan dunyoga ochko'zlik, qizg'anchilik bilan munosabatda bo'lishida yorqin aks etadi. Ta'kidlash joizki, ularning har birida shaxsiy manfaat ustunligi, ziqnalik kabi illatlar qahramonlar xarakterini ochishda katta vazifa bajargan. Satirik va komedik obrazlar xatti-harakati asar voqealar rivojini aks ettirishiga alohida ahamiyat qaratgan. Mazkur holatni muayyan davr voqeligi siyosiy ahvoli bilan bog'liq ravishda yondashishga harakat qilgan. Bu esa o'z navbatida yozuvchi mahorati, har bir davr talabini aniq anglashi mezonidan yuzaga chiqadi. O'sha davrdagi yolqov, ishyoqmas, eskicha o'y-xayollar girdobidagi odamlarga qarshi beayov kurashish lozim degan talablarni asosiy prinsip sifatida qabul qilganligidan darak beradi.

M.Nizanov satirik hikoyalaridagi obrazlar har xil kasb egalari, turli xarakterdagi shaxslar. Yozuvchining yillar davomida to'plagan tajribasi, oq bilan qorani ajrata olish, inson fe'l-faoliyatini tashqi kuzatuv orqali anglash kabi psixologik qobiliyatga ega. Uning satirik hikoyalaridagi Davrxan, Anipa, advokat Baraqov, Gulnora, Bektemirov, Ashirboy, Taymasov, Turdiboev, Qaljanboy kabi obrazlar hayotda mavjud kishilardir. Yozuvchi ularni ayni shunday xarakterdagi insonlarni har taraflama o'rgangan holda tipik obraz sifatida yaratadi. Satirik xarakterlarning yorqin tasvirida hayotdagi yetishmovchiliklar yoki muammolar ustidan kulish-sarkazmga olish yetakchilik qiladi. Qahramonlarning tashqaridan qaraganda ko'zga tashlanmaydigan ichki dunyosi, ko'ngli illatlarga to'lgan nokas kimsalar xarakterlari badiiy ifoda qilinadi. Satirik xarakter yaratishda yozuvchi bir qancha badiiy usullardan mohirona foydalanadi. M.Nizanov qahramon xarakterini yaratishda samarali foydalangan usullardan dialog va monologlar alohida ahamiyatga ega. Hikoyada tasvirlangan o'qituvchi va o'quvchi dialogi orqali jamiyatdagi ayrim o'qituvchilarning o'z manfaati yo'lida hech narsadan tap tortmasligi, oriyatsizligi ko'rsatilsa, monologlar orqali qahramonning xulq-atvori, qalb kechinmalarining psixologik asoslarini yorqin ifodalashga erishadi. Shuningdek, yozuvchi aksariyat asarlaridagi adabiy portretlarda obrazlar xarakterini ularning tashqi ko'rinishini tasvirlash orqali kasbi, lavozimi haqida o'quvchida aniq tassurot uyg'otadi.

Yozuvchi O.Abdiraxmanov qahramon xarakterini yoritishda aktyor, yozuvchi, olim, jurnalist, o'qituvchi, idora boshlig'i, oshpaz va h.k. obrazlardan foydalanadi. Jamiyatda turli toifa odamlar faoliyatida uchrab turadigan laganbardorlik, g'iybatchilik, tilyog'lamachilik, anglamay turli diniy aqidalarni qabul qilish, amalparastlik, o'zini hammadan ustun qo'yish kabi illatlar hikoyalarning doimiy mavzusiga aylangan. Xususan, «Julliq» hikoyasida Botir Qaytpasov va Qaysar

Daldalovlarning o‘jar xulqi ularning nutqida anglashiladi. Hikoyada bir-biriga nisbatan balandparvoqlik nazari bilan qaraydigan odamlar xarakteri yorqin aks etgan. Bu o‘rinda muallif qahramonlarga ism tanlashga ham alohida ahamiyat qaratadi.

Istiqlol davrining dastlabki yillaridan boshlab eski tuzumning chirkinliklarini fosh etuvchi asarlar paydo bo‘la boshladi. Bunday asarlar sirasiga kiradigan Sh.Seytovning «Jaman shıganaqtağı Aqtuba»<sup>29</sup> romanida 1950-1960-yillardan boshlab mustaqillikkacha bo‘lgan tarixiy jarayon tasvirlanib, unda turg‘unlik davrining asl mohiyati, og‘ir oqibatlari teran yoritib beriladi. Zamonning adolatsizligi, soxta siyosat oqibatida qanchadan qancha amalparast, g‘alamis kimsalar o‘z ustunligiga ega bo‘ldi. Romanda xuddi shunday shaxslar obrazi psixologik jihatdan ro‘y-rost, hayotiy tarzda hajv qilinadi. Ular sirasiga: Amirxon, Ayborek, Jerdash, Gulimbet, Jetkeren, Ashirepi, Kengesgul, Gulora, Orazgul, Sanemgul va h.k. kiradi. Bundaylar orasida eski shahardagi yolg‘iz univermag direktori, kattalarga so‘zi o‘tadigan, do‘kondagi katta qiymatga ega narsalarini yashirib qo‘ygan holda bo‘sh do‘konga o‘t qo‘yib, uni boshqalarning gardaniga qo‘yib tuhmat bilan qamatib yuboradigan trest boshlig‘i, hatto raykom sekretarlarini ham o‘zi tanlaydigan, jazmanlarini ham tez-tez o‘zgartirib yuradigan, doim oshig‘i olchi odam xarakteri Amirxon obrazida aniq gavdalanadi. U asarda bir lahzalik rohati uchun hech narsadan qaytmaydigan kishi timsoli sifatida aks etadi.

Satirik xarakter yaratishdagi o‘ziga xos mahorat K.Smamutov hikoyalarida aniq seziladi. Adibning jamiyatda qing‘ir yo‘llar bilan yashovchi insonlarni o‘tkir hajv qilgan asarlari ko‘pchilikni tashkil etadi. Xususan, «Atiest qaynağa», «Kelinimniń pák muhabbatı» «Baylar da jılaydı», «Deydi, deydi, deydi eken», «Jası úlkenniń sıyırı», «Solaqay» «Ańqaw balanıń ákesi», «Túyeniń kópirden ótiwi» kabi hikoyalari satira alomatları bilan sug‘orilgan asarlardir. «Solaqay»<sup>30</sup> hikoyasida soxta olim kishi xarakteri muallif bayoni orqali mohirona tasvirlangan. Hikoyada davr qurboniga aylangan qahramon unga monand ravishda o‘z munosabati, qarashlarini o‘zgartirgan holda hatto ilmni ham aldab-avrashga harakat qiluvchi, doimo teskari fikrlovchi inson xarakteri yoritiladi.

K.Ernazarov asarlarida inson fe‘lidagi noqislik illatlari tanqidiy ruhda tasvirlanib, inson bunday illatlardan yiroq bo‘lishi lozimligi uqtirilib, ezgu ishlarga da‘vat etiladi.

Badiiy asarda konflikt masalasi asosiy muammolardan biridir. «Konflikt, ziddiyat – istalgan asarning asosi»<sup>31</sup>. Hayotni badiiy talqin etish bayonida uning ijobiy va salbiy tomonlarini yoritishda konflikt muhim ahamiyat kasb etadi. Konflikt hayotdagi qarama-qarshiliklar asosida yuzaga keladi. Badiiy adabiyotda o‘zining yorqin aksini topgan konflikt – obrazlar to‘qnashuvi yordamida o‘zining eng yuqori darajasiga ko‘ratiradi. Konflikt badiiy adabiyotning barcha tur va janrlari, drama, epos, lirika, ayniqsa, satirada yorqin aks etadi.

Satirik asarlarda muayyan bir maqsadga erishish istagi hamda personajlar xarakteri orasidagi o‘ziga xoslik komedik konflikt mohiyatini anglatadi. Bu o‘rinda

<sup>29</sup> Сейтов Ш. Жаман шығанақтығы Ақтуба. – Нөкіс: Қарақалпақстан, 1992. – 567 б.

<sup>30</sup> Смамұтов К. Солақай // Әмиўдәрья. – Нөкіс, 2007. - №2. - 87 б.

<sup>31</sup> Қожықбаев Ә. Қарақалпақ романы. – Нөкіс: Қарақалпақстан, 1977. – Б.13.

komedik konflikt yoki uning turli shakllariga murojaat qilishni taqozo etadi. Bu borada, rus olimi D.Nikolaev «Смех – оружие сатиры»<sup>32</sup> tadqiqoti va N.Fedning «Искусство комедии»<sup>33</sup> kitoblarida ikki xil yondoshiladi. Komedik konflikt ijobiy qahramonlar mavjud bo‘lmagan satirik asarlarda ham personajlar to‘qnashuvi aniq ifodalangan sof komediyalarda ham o‘z aksini topadi. Yozuvchi J.Aymurzaevning «Ámiwdáriya boyında» satirik romani ezgulik va yozvuzlik orasidagi abadiy kurash fonida tasvirlanadi. Biz yuqorida komedik konflikt tashqi (syujetli) hamda ichki (mazmun mohiyatidan kelib chiquvchi) konflikt yoki ko‘rinishlarini ta’kidlaganda, ularning birida, ijobiy yoki salbiy qahramonlarning o‘zaro qarama-qarshiligi, ikkinchisida, komedik personajlar pozitsiyasi hamda muallif idealining to‘qnashuvi yuz beradi. Ya’ni, vujudga kelayotgan voqea-hodisalarning shakli va mazmuni o‘rtasida ziddiyat paydo bo‘ladi. Yozuvchi J.Aymurzaevning «Ámiwdáriya boyında» asarida komedik konfliktning har ikki ko‘rinishi uchraydi. Asardagi Ravshan, Murod, Borislardan iborat ijobiy qahramonlar bir tomondan eskilik sarqitlariga qarshi bo‘lsa, ikkinchidan, salbiy personajlarning muayyan voqealardagi ishtiroki asosida nopoklikka qarshi kurash badiiy dalillanadi.

Satirada syujetli konfliktning yana bir ko‘rinishi – salbiy qahramonlarning bir-biri bilan to‘qnashuvi yuzaga kelishidir. Turli qarashlarning bir-biriga zid kelishi, salbiy qahramon yoki personajlar fe‘l-faoliyatining o‘zaro qarashma-qarshilikka uchrashi asnosida satirik personajlar yoki qahramonlar o‘z-o‘zini yoki bir-birini fosh etishi vujudga keladi. Har xil qarashlarga ega yoki hayotda bir-biriga qarshi bo‘lgan ikki toifa odamlarning o‘zaro murosasi yirik janrdagi asarlar konfliktining asosini belgilaydi. Shu ma’noda, O.Abdiraxmanovning «Aktyor» satirik hikoyasida ham komedik konflikt mohirona yaratilgan. Unda o‘ttiz yildan buyon sahnada umr surgan Turshekeng obrazi tasvirlangan. Bu asar orqali muallif teatr masalasiga tanqidiy munosabatda bo‘ladi. Sahna bilan bog‘lik faoliyatda ayrim insonlarning shunchaki ishlab yurgani, o‘zi ishiga mas’uliyatli va ijodiy munosabatda bo‘lmayotganligi alam bilan qalamga olinadi.

Ikkinchi bobning uchinchi faslida «**Satirik nasrda komizm va dramatism**» masalasi tahlil qilinadi. Satirik asarlarda komizm va dramatismning aralash qo‘llanilishi Sh.Seytovning «Jaman shiganaqtağı Aqtuba», K.Raxmanovning «Aqibet» romanlari, I.Qurbanbaevning «Tanislar» qissasi, H.Otemuratova, M.Nizanov kabi ijodkorlar hikoyalari misolida o‘rganildi.

Kulgu, qayg‘u, baxt va baxtsizlik inson psixologik holati va his-tuyg‘ulari ham bir-biriga qarama-qarshi vaziyatlarni vujudga keltiradi. Qoraqalpoq nasrida satirik roman, qissa va hikoyalarga nisbatan kamchilikni tashkil etadi. Yozuvchi Sh.Seytovning «Jaman shiganaqtağı Aqtuba» romanida Amirxonning keksayib yoshi bir joyga borgan bo‘lsa-da, yigitlik davrini qumsab yosh qizlarni qarmog‘iga ilintirish istagidagi xatti-harakatlari tasvirlangan. Keksalik yoshiga yetsa-da, beli baquvvat Amirxonning aql-xushi joyida bo‘lmagan Tursunga tajovuz qilish epizodida komizm va dramatism uyg‘unlikda tasvirlangan. Asarda Amirxon telba qizni ergashtirib, davolataman deb ishontirgan holda o‘zining qabih ishini amalga oshirish jarayonidagi

<sup>32</sup> Николаев Д. Смех – оружие сатиры. – М.: Искусство, 1962. – 223 с.

<sup>33</sup> Федь Н. М. Искусство комедии. – М.: Наука, 1973.

dramatik tasvir kitobxon qalbini larzaga soladi. Keksa bo‘laturib, yosh yigitlardek yasangan, qimmatbaho kiyimlar kiygan holda ko‘rinishi, Tursunni qo‘lga kiritish uchun ayyorlik yo‘li bilan Kengesguldand foydalanishi achchiq, zaharxanda kulgu orqali ifodalanadi. Asarda aksariyat shunday dramatik vaziyatlar ko‘p uchraydi. Shuningdek, komik va dramatik holatlarni aralash tarzda ifoda qilish yozuvchi K.Raxmanovning «Aqibet» romanida ham yorqin tasvirlanadi. Romanda Toshpolatning uyida Sherniyaz va Ulperi uchovi maslahatlashib, yo‘qolgan oltinlarni folbin aytganidek, qo‘shnisining tovuqxonasidan izlashi komik va dramatik vaziyatni keltirib chiqaradi. Romandagi komik vaziyat Toshpolatning o‘z ayoliga kuch ko‘rsataman deb aksincha o‘zi kaltak yeyishida aks etadi.

Yozuvchi I.Qurbanbaevning «Tanislar» qissasida komik va dramatik vaziyatlar aralash holda keladi. Unda ijodkor mahorati shundaki, dramatik voqealar komik vaziyatlar zamiriga singdiradi. Qissada dramatik vaziyatlar Serkeboy bilan Laylining xolvachining tuzog‘iga tushib qolishganda Layli ko‘nglida kechgan dahshatli tuyg‘ularda kuzatiladi.

Dramatik va hajviy tasvir uyg‘unligi yozuvchi H.Otemuratova ijodida ham kuzatiladi. Uning «Kúyewimniń atın bilmeymen»<sup>34</sup> hikoyasida o‘zboshimchalik bilan qiz olib qochish dasturi tanqid qilinadi. Qalbi muhabbatga to‘lgan yosh qiz qismati nokas kimsalarning g‘araz niyatlari oqibatida bevaqt hayotdan ko‘z yumishiga sabab bo‘ladi. Asar nomi kitobxonda beixtiyor kulgu uyg‘otadi. Ammo asar mazmuni bilan to‘liq tanishgach qanchadan qancha qizlarning hatto umr yo‘ldoshi ismini bilmay shu qismatga ko‘nishi, ayanchli taqdiri, gulday umrining xazon bo‘lishi muallif tomonidan fojiali tasvirlanadi.

Tadqiqotning uchinchi bobi «**Qoraqalpoq satirik nasrining badiiy xususiyatlari**» deb nomlanib, ushbu bob uch fasldan tarkib topgan. Bobning «**Satirik nasrda badiiy tasvir vositalaridan foydalanish**» deb nomlangan birinchi faslida, satirik asarlarda ironiya, sarkazm, grotesk, giperbola kabi badiiy tasvir vositalarining qo‘llanilishi va ularning o‘ziga xos xususiyatlari ilmiy tahlilga tortildi

Ma‘lumki, satiraning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri ijtimoiy turmushdagi illatlarga ko‘zgu vazifasini bajarish bilan bir qatorda satirik tasvir vositalarining turlari va xarakteri, yo‘nalishi, obykti, maqsad va vazifasi muayyan maqsadga yo‘naltirilganligi bilan belgilanadi. Satirik asarlarda badiiy tasvir vositalari sayqal uchun emas, balki, mazmunni aniq ifodalash, ta’sirchanlikni oshirish uchun foydalaniladi. Satirik asarlarda eng ko‘p qo‘llaniladigan tasvir vositalaridan – ironiya, sarkazm, grotesk, giperbola, allegoriyalarga muallif aniq vazifalar yuklaydi. K.Smamutov «Solaqay» hikoyasida asar g‘oyasini yoritishda ironik tasvirdan keng foydalangan: «*Qansha aytqan menen ilimniń adamı ǵoy. Asıqpaydı, Albiramaydı. Barlıq qıymıl-qozǵalısında ǵúyis qaytarıp turǵan sıyırdıń biyǵamlıǵında biyǵamlıq bar. Bir nárseni aytpastan aldın suwlıǵı menen suw ishken ayǵır attay tamsanıp turıp aladı eken. Bul náirse ilim dese ishken asın jerge qoyatuǵın talant iyelerin bargan sayın intıqtırsa kerek*». (K.Smamutov «Solaqay». 90-bet).

<sup>34</sup> Отемуратова Х. Жулдызым, жоқары. – Нөкіс: Қарақалпақстан, 1995.

M.Nizanovning «Jıldı kim qalay juwmaqladı» asari to‘liq sarkazmga asoslanadi. Har bir kasb vakillari o‘tgan bir yil yakunida qanday ishlarni amalga oshirganligi, kimlarning qanday daromatga ega bo‘lgani, kimlarningdir oshig‘i olchi bo‘lgani kabi masalalar o‘tkir sarkazm asosida ifodalanadi. Yozuvchi K.Smamutov ham har bir asarida sarkazmdan mohirona foydalanadi. Xususan, «Túyeniń kópirden ótiwi» hikoyasida satirik xarakterning yoritilishi o‘tkir sarkazmga tayanadi. « – *Bir uzaq bayanat qaytadan jazıw kerek bolıp tur. Soǵan járdem júdá zárúr. Túsindiń be? Tezirek kel!... Al baslıq máselesine keletuǵın bolsaq... gáp mınanday... Tap erteńnen baslap, sol baslıǵıńnıń saǵan emes, al sen oǵan baqıratuǵın bolasań!...*» (K.Smamutov «Túyeniń kópirden ótiwi». 69-bet). Yozuvchi ayrim mansabdor shaxslarning ish faoliyatida haddidan oshib ketishini achchiq sarkazm bilan yoritib bergan.

O.Abdiraxmanovning «Gápke qayım adam» hikoyasida satirik qahramon xarakterini yaratishdagi giperbolalarning o‘rni alohida e‘tiborga molik. «*Hámme kóz jası kól bolǵan baslıqtıń sekretar qızına jalt qarastı*» (O.Abdiraxmanov «Gápke qayım adam». 5-bet). Bu yerda kotiba qizning hissiyoti bevosita keskinlashtirib berilgan bo‘lsa, «*Stoldıń astınan hár kúni shimishkeniń qabıǵın eteklep alıp taslayman*» deb kotiba qiz tomonga farrosh opani «*eteklep*» (bir etak ma’nosida) so‘zini qo‘llash orqali besaranjomlikka qarshi norozilik bildiradi. Bu misollardan ayonki, ularda muallif kotiba qiz xarakteriga mos tasvir yaratadi.

M.Nizanovning «Hámelden túsken qanday boladı» hikoyasida groteskli tasvirlardan ko‘plab uchraydi. «*Bilay qarasam, qulaǵı salbırıp ketken góy-áy... Ayap kettim, ráńki bózdey sarǵayıp ketipti...*» (M.Nizanov. «Hámelden túsken qanday boladı». 41-bet). Keltirilgan misollarda yozuvchi rahbar odam va uning atrofida gilar obrazini badiiy ifoda qiladi. Umumlashtirib aytganda, badiiy tasvir vositalari satirik asarlarni g‘oyaviy va badiiy boyitishda alohida vazifa bajaradi.

Uchinchi bobning «**Leksik resurslarning satirik nasrdagi badiiy talqini**» deb atalgan ikkinchi faslida satirada leksik resurslarning badiiy vazifasi aniq misollar orqali tahlil qilindi. Satirik asarlarda obraz va xarakter yaratish, va u orqali jamiyatda mavjud illatlarni fosh qilish borasida leksik resurslarning o‘rni benihoyat katta. Yozuvchi o‘z asarlarida muayyan davrga xos ijtimoiy masalalar talqini, davr talabiga mos jarayonlarni ifodalashda badiiy nutqqa alohida e‘tibor qaratadi. Zero, qahramon tili u yashagan davrning ijtimoiy tarixiy o‘ziga xosligi muayyan hudud va muhit koloriti hamda uning individual xarakterini aks ettirishda alohida ahamiyatga ega.

Yozuvchi Sh.Seytovning «Jaman shıǵanaqtaǵı Aqtuba» romanida qo‘llanilgan varvarizmlardan qahramon xarakterini ifodalashda samarali foydalanilgan. Asarda Amirxon tilidan bayon etilgan o‘rinlarda rus tilindagi «**пожалуйста**» so‘zi «**пожалуйста**» shaklida o‘z leksikasiga muvofiqlashtirib aytilgan. Asarda varvarizmlar qahramon xakteri, ichki dunyosini achchiq kulgu orqali yoritishga xizmat qiladi. Xususan, Amirxon chuqur ta’kidlash ma’nosida qo‘llasa, quyidagi misolda Nokerbay tilidan maqtanish, o‘z ishidan rohatlanish ma’nosida ishlatiladi:

«- **Пажалиста!** – dedi alaqanin sirt jaqqa jayip. -Ayibimdi juwdim. Óziñ kelemen degenshe úsh miñ gerbishiñdi quyip tasladim!..

- Ol **сволоч** adam! Parkte tayaq jep atırǵanımda tutup áketip, úsh qabat jayın órgizdi maǵan! Biraq, araq beretuǵın edi, saǵan da berdi me?!» (ShSeytov «Jaman shıǵanaqtaǵı Aqtuba». 75-bet.) asar qahramoni Nokerboy tilidan yangragan «**сволоч**» so‘zi ham uning tabiatiga moslashtirilgan holda qahr-g‘azab bilan birga xushlamaslik hissini kuchaytirish uchun qo‘llanilgan.

Yozuvchi Sh.Seytovning «Jaman shıǵanaqtaǵı Aqtuba» romanida vulgarizmlardan qahramon xarakterini ochish uchun qo‘llanilgan. Biz adibning vulgarizmlardan foydalanish mahoratiga doir masalalarni quyidagi guruhlarga ajratgan holda o‘rgandik:

a) qahramon xarakteridagi ojizlikni ifodalovchi vulgarizmlar: «*buzıq, hayyar, samsam, qatın, júzsiz hám t.b*». Bunday so‘zlar nutqning tinglovchiga nosamimiy munosabatini, ichki nidolarini, nafratini ifodalashda qo‘llanadi. Masalan: asar qahramonlari Aytboy va Gulimboy orasidagi dialogda Aytboyning Gulimboyga nisbatan g‘azabi, undan aldanib qolganida nafratlanish hissi ifoda qilinadi. «– *Sen óziñe óziñ gúwasañ, samsam! Qaymıǵıp qalǵan gellesin tiklep sóyledi Gúlimbay. - Sen házir qoyıp tur usı jerde, kóziñe gúwani kórsetemen!.. - Mine saǵan gúwa, mine-e! - Aytbay oñ qolın ashıw menen fortochkadan soyqalaqladı. - Kórsete almasañ qatınsañ!..*» («Jaman shıǵanaqtaǵı Aqtuba». 233-bet). Keltirilgan misolda, «**samsam**» so‘zi aqlsiz, nodon, tushunmaydigan ma’nosida qo‘llanilsa, «**qatınsañ**» so‘zi aytgan so‘ziga javob berolmaydigan erkak kishilarga nisbatan qo‘llaniladi.

b) qahramonning tashqi nuqsonlarini ifodalovchi vulgarizmlar: *meshkey, doñız, qotır, jılanbas, kompek* va h.k. Bunday vulgar so‘zlar qandaydir predmet nomiga yaqinlashtirish, nimagadir o‘xshatish natijasida sodir bo‘ladi. Masalan: «*Ámirxan balası iske ketip qalǵan soñ oyandı hám balasına kózi túspegenlikten jañaǵı doñızǵa oyat dep edim-ğooo! - dedi hayalina jekirinip*». («Jaman shıǵanaqtaǵı Aqtuba».405-bet). Amirxon o‘zi avaylab o‘stirgan o‘tirgan o‘g‘lining otasi gapini tinglamay o‘zboshimchalik bilan ketib qolishini to‘ng‘izga tenglashiga sabab bo‘ladi. Bu yerda **doñız** so‘zi oliftagarchilikni anglatadi.

v) so‘kish, haqorat ma’nosini ifodalovchi: *aqmaq, súmelek, jilli, jarımes, baxtı qara, ańqaw, tentek, shaytan* va h.k. Bunday vulgar so‘z va so‘z birikmalari orqali suhbatdoshning ichki nidolari, ruhiy holati, nafrati ifodalanadi. «**Aqmaq** bolmasañ, uyıqlap jata bergenshe, dúkanıña qara! Maǵan shańqay túste xabarlap tur, tap bir, súyinshi soráǵanday, **aqmaq!** - *Ámirxan jerge bilsh ettirip túpirip, ornınan turıp ketti*» («Jaman shıǵanaqtaǵı Aqtuba». 92-bet). Ushbu parchada Amirxon nutqidagi Jerdashga nisbatan bildirilgan qahr-g‘azab va nafrat **aqmaq** so‘zi orqali bayon qilinadi.

Romanda qahramonlar tilidan bayon etilgan vulgarizmlarning barchasi yomon ko‘rish yoki nafratlanish hissini bildirmaydi. Qahramon tilidagi jaydari so‘zlarda suhbatdoshga bo‘lgan mehr ham ifodalanadi. Ayniqsa, Aybo‘rekning Jerdash bilan o‘zaro suhbatlarida unga nisbatan nafrat emas, aksincha, uning soddaligiga bo‘lgan mehr aks etadi. «*Balasına Jerdash: «Berdash» degen at jazdırıp; gúwalıǵın tuwıw úyine hayalınıñ izinen aparǵanda, Aybóregi oqıp kórip: «Aqımaǵım-aw,*

«*Berdash*» *degen de at bola ma, eñ bolmasa, Gúljanniñ kisisiniñ atunday etip «Erdash» dey qoysa bolmay ma!.. Óziniñ atınıñ ersiligi azbedi...»* («Jaman shıganaqtağı Aqtuba». 89-bet).

Romanda so‘kish, haqorat qilish ma’nosidagi so‘zlarda har xil hayvonlar nomlari bilan qo‘llanilgan birikmalar ham uchraydi: «–*Sen... sen... – Tıgıldı Aytbay. Iyt ekenseñ-go!.. – Yaman qabawıq iytpen-dáá! - Wahahalap kúldi Gulimbay»*. («Jaman shıganaqtağı Aqtuba». 243-bet). Asar qahramoni Aytboy Gulimboyning o‘ziga nisbatan munosabatidan, aldaganidan g‘azablanib uni itga qiyoslaydi.

O.Abdiraxmanov hikoyalarda ham qahramon xarakterini yorqin aks ettirishda vulgarizmlardan samarali foydalanilgan. Adibning «Gapga moyil odam» hikoyasidagi idora boshlig‘i xarakterini yoritishda uning xodimlarga nisbatan munosabati, qahramon nutqi orqali aks ettiriladi. « – *Aqmaq, erkek geshirdey aqmaq! Quday dúnyadağı barlıq aqmaqshılıqtı bir qosıwıslap alıp, seni jaratqan, – dedi gázep penen*» (O.Abdiraxmanov «Bir muhabbat tariyxı». 7-bet). Boshliq o‘z xodimlariga «*aqmaq*» so‘zi bilan ko‘p kamsitadi. «*Aqmaq*» so‘zi boshliqning chin ma’nodagi nafratini ifodalamasada, u tiliga erk bergani uchun o‘quvchi ko‘z o‘ngida vazmin odam sifatida taassurot uyg‘otmaydi. Yozuvchi mansabdor shaxs har qanday holatda ham o‘zini vazmin tuta olishi lozimligiga ishora qilgan holda shunday qo‘pol munosabatli kishilarni keskin tanqid qiladi.

Badiiy asarda jargon so‘zlardan foydalanish qahramon xarakteridagi ayrim nuqsonlar yoki uning o‘ziga xos qirralarini namoyon etishda qo‘l keladi. Yozuvchi Sh.Seytov ijodiga mansub «Jaman shıganaqtağı Aqtuba» romanida yoshlar tilida bir qator jargon so‘zlar maqsadli qo‘llaniladi: « – *Maxa-aan! – degen ses jalt qarattı Ubaydanı. – Men tuwılğan künge ketejaqpan, shalbardı utyugle! Anası «bulardıñ tuwılğan kúni de ada bolmay - dı!» dep toñqıldanıwı menen orınınan turıp ketke*» («Jaman shıganaqtağı Aqtuba».192-bet). Amirxonning o‘g‘li Temirbek ota-onasini *paxan, maxan* – deya atashi katta yoshdagi odamlar uchun erish tuyulsa-da, ammo, o‘zi qatori yoshlar orasida dasturga aylgan so‘zlardir.

K.Raxmanovning «Aqıbet» romanında jargon so‘zlar bilan bir qatorda argotizmlardan keng foydalaniladi. Ma’lumki, argotizmlar jargon so‘zlar bilan o‘xshash xususiyatga ega bo‘lib, unda aksariyat, yashirin ma’no ifoda qilinadi. Xususan, Taspolatning o‘g‘li Nurpolat onasi Ulperi bilan muloqotida shunday jargonlar uchraydi: « – *Nege úskiniñ quyılıp ketti, balam? Amanlıqpa?! – Qulap qaldım. – Qulap? – dep taqatsızlanıp soradı Ulperi. – Kóziñe qarañqırıp júrseñ bolmayma janım? Bir jeriñ jaraqatlangan joqpa?Pay, mama deymen-aw! Ekzamennen qulap qaldım*». (K.Raxmanov «Aqıbet» 70-bet). Nurpolat tilidan bayon etilgan *qulap qaldım* so‘zi asosan talabalar orasida qo‘llanilganligi sababli onaga tushunarsiz bo‘ladi. Demak, satirik asarlarda varvar, vulgar, jargon, argotizm so‘zlar orqali qahramon xarakterini yoritishda ular yashagan muhit tipik ahamiyat kasb etadi. Personajlar nutqining o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatgan holda ular obrazini individuallashtiradi.

Uchinchi bobning «**Satirik nasrda maqol va matallarning badiiy xizmati**» deb nomlangan uchinchi faslida Sh.Seytovning «Jaman shıganaqtağı Aqtuba»,

K.Raxmanov «Aqibet» romanlari, shuningdek, yozuvchi M.Nizanov, K.Ernazarov asarlaridagi maqol va matallarning estetik tabiati va badiiy vazifasi muayyan misollar orqali tahlilga tortildi.

Satirik asarlarda maqol va matallar qo'llash satirik xarakterga ega qahramonlarning ichki olamini ifodalashda muhim vazifa bajaradi. «Jaman shiganaqtagi Aqtuba» romanidagi maqollar asardagi satirik obrazlar tasvirini yorqin aks ettirishda juda asqotgan. Muallif Aytbay tilidan ifoda qilingan maqol va matallarda muttaham, razil kimsa obrazini tasvirlaydi: « – *Ótiri-ik!!! Óytip jurtqa jala jappa! – Awzimdi qızdırıp aytıra bere jaqsah-ǵo, parasız hámel alıp kór qáne! «Gúlsheli bala súymege jaqsı», «mıń siz, bizden, bir shıj, pij!»*. («Jaman shiganaqtagi Aqtuba».232-bet). Adib «*Gúlsheli bala súymege jaqsı», «mıń siz, bizden, bir shıj, pij!»*, «*Aqıllı para beredi, aqımaq bara beredi!*» maqollarini qo'llash orqali qahramon xarakterini yana-da yorqinroq tasvirlagan holda poraxo'rlikka moyil kimsalarni keskin tanqid qiladi.

K.Raxmanovning «Aqibet» romanida ham maqollar qahramon xakteri tasvirida katta rol o'ynaydi. Romanda Ulperi xakteri tasvirida ham maqollardan mohirona foydalanilgan. Ulperi yoshi katta bo'lsa-da, xayolini yoshlikdagi sho'xliklari tark etmagan behayo ayol obrazi sanaladi. O'zining bir kunlik rohatini o'ylaydigan bu ayolning nafratomuz harakatlarini yozuvchi nihoyatda nozik shu bilan birgi o'tkir sarkazmga asoslangan maqollar orqali ifodalaydi: «*Ulperi qaytadan jorǵa ashıp, baǵanaǵı qız qálpine túskendey nazın basladı. «Túyege naz qıl deseń bir tanap jerdi wayran etedi» degendey, Sherniyaz onıń nazınan da seskenedi»* («Aqibet». 114-bet). Muallif Ulperining jirkanch qiyofasini tuyaga o'xshatib, unga har kimning ham ko'ngli ro'y bermasligini satirik ifodada bayon etadi.

M.Nizanov satiralarida maqol va matallarning vazifasi alohida ahamiyat kasb etadi. Uning «Erkekler haqqında shaǵım»<sup>35</sup> hikoyasida hazil va chin aralash ayollarning dard-u iztiroblari yengil satirada ifodalanib bir qancha maqol va matallarda aks ettiriladi: «*Altın baslı hayaldan, baqa baslı erkek artıq*», «*Qatın basqarǵan el ońbaydı*», «*Qatınnıń shashı uzın, aqılı kelte*», «*Nashardıń aqılı eki kózinde*» kabi maqol va matallarda erkaklar hamda ayollar orasidagi kelishmovchiliklar sabablari satirik ruhda talqin qilinadi.

Nasriy asarlar satirasida qo'llanilgan tasvirlar qahramoning ichki kechinmalari tavsiriga ko'chma ma'no yuklagan holda hayot haqiqatining badiiy talqiniga chuqurroq nazar tashlashga undaydi. Nasriy satirada qo'llanilgan leksik birliklar (varvarizm va vulgarizm), maqol va matallar sujet hamda konflikt rivojida, qahramonning ichki kechinmalarini bayon etishda, umumiy mazmunni ro'yobga chiqarishda muhim poetik vosita sanaladi.

## XULOSA

So'nggi yillarda qoraqalpoq adabiyoti va uning o'ziga xos qirralaridan bir bo'lgan satirik proza hayotimizdagi tub o'zgarish, yangilanishlar jarayoni, davr ruhiyatini haqqoniy tasvirlash borasida jiddiy yutuqlarga erishdi. Adiblar ochiq va

<sup>35</sup> Нызанов М. Ырасын айтсаң урады. – Нөкис: Арал, 1993. – Б. 5.

oshkora ravishda turmushdagi illatlar, inson fe'l-atvorida uchraydigan nuqsonlarni xolis yoritish, keskin va murossasiz munosabat bildirish malakasini egallashdi. O'tkir kinoya va hajviy ohang ustuvorligida hayotiy faktlar bilan yana-da boyitilgan satirik talqinning takomillashuviga mustahkam zamin yaratadi. Tadqiqot mobaynida qoraqalpoq satirik nasri g'oyaviy-tematik miqyosi, janriy-uslubiy jihatlari hamda hajviy obraz yaratish mahorati bilan bog'liq xususiyatlar, satirik tasvirlar tahlili natijasida quyidagi umumiy xulosalarga kelindi:

1. «Satira» atamasi vujudga kelishi, etimologiyasi jahon adabiyotshunosligi va estetikasida mavjud nazariy mushohadalar vositasida mustahkamlandi. Dastlab xalq og'zaki ijodi namunalarida o'z ifodasini topgan istiloh yozma adabiyotda muallif pozitsiyasini belgilaydigan asosiy omilga aylangan. Adabiy tur hamda janrlarga ko'chgan badiiy tafakkur tipi so'z san'ati adabiy mezonlarini ta'minlash vazifasiga kirishdi. Qisqa fursat mobaynida satirik nasr – jamiyat va uning taraqqiyot bosqichlariga zarar keltiradigan negativ holatlar, salbiy illatlarni fosh qiladigan, hajv tig'ini tanqidiy tafakkurga yo'naltiradigan asarlardan iboratligi kuzatildi.

2. Qoraqalpoq satirik prozasining ilk belgilari XX asr 30-yillarida hikoya, ocherk, felyetonlarda ko'zga tashlanadi. Shu davr 50-yillar oxirida hajviy talqin o'ziga xosligi J.Aymurzaevning «Ámiwdárya boyında» romani, 60-70-yillarda Q.Ayimbetov hikoyalari, 80-yillariga kelib O.Abdiraxmanov, M.Nizanov, S.Jumag'ulov, K.Smamutov, H.Otemuratovalarning satirik hikoyalari adabiy yo'nalish sifatida barqarorlashdi. Shuningdek, Sh.Seytov «Jaman shıganaqtaǵı Aqtuba», K.Rahmonov «Aqıbet» asarlarida satirik tasvir usuli ancha shakllandi, rivojlandi.

3. XX asrning 70-80-yillarida qoraqalpoq satirik nasrida hikoya va qissalar (I.Qurbanbaevning «Tanıslar» qissasi, O.Abdiraxmanov, M.Nizanov, S.Jumag'ulov hikoyalari) paydo bo'ldi. Bugungi kunda Sh.Seytov, K.Raxmanov, K.Smamutov, A.Abdiyev, H.Otemuratova, K.Ernazarovlar ijodida hajviy tafakkur tipi maxsus adabiy talqin shakli sifatida yangi rivojlanish bosqichlariga ko'tarildi.

4. Qoraqalpoq adabiyotida satirik nasrning g'oyaviy-tematik miqyosi va tasvir yo'nalishi o'ziga xosligi: 1. Ijtimoiy-siyosiy muammolar, inson fe'l-atvorida ko'zga tashlanadigan salbiy illatlarning tanqidiy tahliliga bag'ishlangan asarlar; 2. Korrupsiya va ta'lim tizimida uchraydigan kamchiliklarni badiiy tadqiq qiluvchi asarlar; 3. Xiyonat, adolatsizlik, xushomadgo'ylik kabi hayotiy-maishiy muammolar talqini aks etgan asarlar; 4. Ayollar qismati va farzand tarbiyasi muammosi asosiy g'oyaga ko'tarilgan asarlar tasnifida o'rganildi.

5. Satirik asarlar real voqea-hodisalarni tasvirlash tamoyillariga muvofiq, boshqa janrda yaratilgan ijod namunalaridan keskin tafovut qiladi. Tanqidiy tafakkur bosimi, keskin pozitiv munosabat, hajv tig'i o'tkirligi, sog'lom ma'naviy-axloqiy mezonlarning vujudga kelishiga xizmat qildi. Ijtimoiy xarakterga ega illatlarni bartaraf etish, nojo'ya xatti-harakatlarni fosh qilish nasriy satirada yana-da mukammallashdi. Mazkur holat satira ikkinchi planga o'tgan asarlarda ham muhim ijtimoiy va badiiy vazifa bajardi. Xususan, Sh.Seytovning «Jaman shıganaqtaǵı

Aqtuba», K.Raxmanovning «Aqibet» romanlarida jamiyat va shaxs kayfiyati hamda dunyoqarashi uygʻunlikda badiiy talqin etildi.

6. Satirik nasrda yengil kulgu yordamida konflikt yaratish tajribasi tasvir miqyoslarini rang-baranglikka yoʻnaltirdi. Xarakterlararo ziddiyatlarni belgilash, ichki (maʼno) va tashqi (syujet) konflikt xususiyatlarini tafovutlash mazkur masalani konkretlashtirdi. Bu oʻrinda inson va jamiyat munosabati tahlil obyektiga aylangan holda badiiy talqin va tahlil xosligi va mutanosibligi tasviriy ifoda haqqoniyligini taʼminladi.

7. Satirik nasrda komizm va dramatism sintezi davr haqiqatini yoritishda hajviy yoki dramatik vaziyat taqozosiga koʻra shakl va mazmun mutanosibligini yuzaga keltirdi.

8. Badiiy tasvir vositalari sanalgan ironiya, sarkazm, grotesk, giperbolalar qoʻllanilishi satirik tasvirda asar gʻoyasining yuzaga chiqishida ahamiyat kasb etadi. Mazkur holat ifoda ijodiy imkoniyatlarini kengaytirgan holda emotsional taʼsirchanlik va hissiy ekspressivlikni taʼminlaydi. Bu holatlar «Solaqay» (K.Smamutov), «Tulki» (K.Ernazarov) asarlarida aniq kuzatiladi. «Jildi kim, qalay juvmaqladi» (M.Nizanov), «Tuyenin kopirden otivi» (K.Smamutov) asarlarida mualliflar nozik sarkazmga asoslansa; M.Nizanovning «Hamelden tusken qanday boladi?» asarida grotesk; M.Nizanovning «Akeñe sale ayt», «Advokat haqqinda ertek», «Kunde utatugin lotereya», O.Abdirahmonovning «Gapke qayim adam», K.Smamutovning «Abadannin papasi», K.Ernazarovning «Sipsin» hikoyalari hamda K.Raxmanovning «Aqibet» romanlarida giperbolalar ijodkorlarga hajv yaratish vositasi sifatida xizmat qilganligini kuzatish mumkin. Mazkur badiiy usul oʻz navbatida jamiyat va shaxs manfaatlarini muhofaza qilishda ijodkorlarga cheksiz imkoniyat yaratadi.

9. Satirik nasrda qahramon xarakterini individuallashtirish, milliy va ijtimoiy muhitni, davr koloritini ochib berish uchun personajlar tilida leksik resurslar foydalanilgan. Personajning ichki dunyosini achchiq kulgu bilan ochilib, qahramon xarakteridagi madaniyatsizligi, manmanligi dialog shaklida varvarizmlar yordamida berilganligi aniqlandi. Qaharmanlarning esa, qoʻpol, soʻkishi, yomon koʻrishi, xarakteridagi ojizlikni tasvirlovchi, tashqi kamchiligino ochib berish maqsadida vulgarizmler qoʻllanilgan. Jargon soʻzlar va argotizmler yordamida muayyan ijtimoiy guruhlardagi odamlarning xarakteridagi kamchiliklari koʻrsatib berilganligi aniqlangan.

10. Maqol-matallar yordamida satirik xarakterning ichki psixologiyasi aks etgan. Matal va maqollarni qoʻllanish orqali satirik asarlarning ixchamligi taʼminlanib, taʼsirchanligi orttirilgan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.04.2021.Fil.20.01 ПО  
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ КАРАКАЛПАКСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**  

---

**НУКУССКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ  
ИНСТИТУТ**

**ЖАКСЫЛЫКОВА АЛЬБИНА САГЫНБАЕВНА**

**КАРАКАЛПАКСКАЯ САТИРИЧЕСКАЯ ПРОЗА**  
**(генезис, тенденции развития, поэтика)**

**10.00.12 – Каракалпакская литература**

**АВТОРЕФЕРАТ диссертации доктора философии (PhD) по  
ФИЛОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан за номером В2021.1.PhD/Fil700.

Диссертация выполнена в Нукуском государственном педагогическом институте

Автореферат диссертации размещён на трёх (узбекский, русский, английский (резюме)) языках на веб-странице Научного совета ([www.karsu.uz](http://www.karsu.uz)) и на Информационно-образовательном портале «Ziyonet» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Научный руководитель:**

**Бекбергенова Мария Досбергеновна**  
кандидат филологических наук, доцент

**Официальные оппоненты:**

**Нуржанов Пердебай Ержанович**  
доктор филологических наук, доцент

**Байниязова Тазагуль Киркбаевна**  
доктор философии (PhD) по филологическим наукам

**Ведущая организация:**

**Самаркандский государственный университет**

Защита диссертации состоится «12» 09 2024 года в 14<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета DSc.03/30.04.2021.Fil.20.01 при Каракалпакском государственном университете (Адрес: 230112, г. Нукус, ул. Ч. Абдилова, дом1.Тел: (99861)223-59-25, факс: (99861)223-59-25; e-mail: [karsu\\_info@edu.uz](mailto:karsu_info@edu.uz).)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каракалпакского государственного университета (зарегистрирована за № 196). Адрес: 230112, г. Нукус, ул. Ч. Абдилов, дом 1. Тел: (99861) 223-59-25.

Автореферат диссертации разослан «21» 08 2024 года.  
(Протокол реестра рассылки № 6 от «21» 08 2024 года).



**К.К.Оразымбетов**  
председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук, профессор

**Д.Б. Сейткасымов**  
ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор педагогических наук (DSc), доцент

**З.У.Бекбергенова**  
председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы.** В современном мире информационного века ускоренное развитие интеграционных процессов повышает необходимость профессиональных связей между представителями различных государств и культур. На сегодняшний день в мировой литературоведческой науке художественные произведения анализируются по новому, изучаются через его оценку, особенно, наблюдаются тенденции выполнения фундаментальных исследований изучения направлений развития сатирической прозы, художественных поисков и особенностей в создании характера и конфликта. Изучение возникновения, формирования и истории развития в литературе сатирической прозы в качестве многовекового национально-литературного опыта создает большие возможности к глубокому проникновению и изучению содержания художественного текста. На этой основе, в условиях глобализации, комплексное изучение идейно-тематических, художественных особенностей сатирической прозы, вопросов связанных с созданием характера и конфликта считается одним из основных факторов обеспечивающих развитие современной литературоведческой науки.

В мировой литературоведческой науке изучение сатирической прозы с художественной стороны, особенно, вопросы понимания сатиры как явления связанное с художественной литературой с учетом национальных и общечеловеческих ценностей на основе поэтических размеров и по сей день является причиной споров. Поэтому, художественное произведение, в том числе, отображение передовых творческих тенденций свойственных сатирической прозе имеет большое значение как литературно-эстетическая категория. С этой точки зрения, в современном обществе смеяться над особыми негативными ситуациями, изучение сатирических произведений, порожденных необходимостью через выражение отрицательного отношения к специальному одному объекту формирования положительного идеала является очень важной проблемой определения художественных поэтических особенностей развития каракалпакской прозы.

В литературоведении периода независимости сатирическая проза и некоторые вопросы ее развития в определенной степени обобщается с теоретической точки зрения. Но, в каракалпакской литературоведческой науке возникновение сатирической прозы, тенденции развития и ее поэтика по сей день специально не исследована. Значит, с этой точки зрения, обращение “внимания к литературе и искусству, культуре – это, в первую очередь, внимание к народу и к будущему”<sup>1</sup> и определяет актуальность проблемы.

Данная диссертация в определенной степени служит для реализации задач, обозначенных в указе Президента Республики Узбекистан за № 60 от

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустахкам пойдеворидир// Халқ сўзи. – Тошкент, 2017. 4 август, 153 (6847).

28 января 2022 года «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022 - 2026 годы», в указе Президента Республики Узбекистан за № 5812 от 6 сентября 2019 года «О дополнительных мерах по дальнейшему совершенствованию системы профессионального образования», в указе Президента Республики Узбекистан за №5847 от 8 октября 2019 года «Об утверждении концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», в постановлении Президента Республики Узбекистан за № 2789 от 17 февраля 2017 года «О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности академии наук, организации, управления и финансирования научно-исследовательской деятельности», в постановлении Президента Республики Узбекистан за № 2909 от 20 апреля 2017 года «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы высшего образования», в постановлении Президента Республики Узбекистан за № 3271 от 13 сентября 2017 года «О программе комплексных мер по развитию системы издания и распространения книжной продукции, повышению культуры чтения», в постановлении Президента Республики Узбекистан за № 3652 от 5 апреля 2018 года «О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности Союза писателей Узбекистана», постановлении Президента Республики Узбекистан за №4354 от 7 июня 2019 года «Концепция развития информационно-библиотечной сферы Республики Узбекистан на 2019-2024 годы», а также в Законе Республики Узбекистан «Об образовании» за №637 от 23 сентября 2020 года и других нормативно-правовых актах, касающихся данной отрасли.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Данное диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий I. «Формирование системы инновационных идей и их применение в развитии духовно-нравственного, культурного демократического, правового государства и информационного общества».

